

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TALIM VAZIRLIGI
NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI
NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI
ENERGO-MEXANIKA FAKULTETI**



**«CHIZMA GEOMETRIYA
VA MUHANDISLIK GRAFIKASI»
fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun**

METODIK QO'LLANMA

Tuzuvchil N.R. Kulmurotov

«Ishlab chiqarish texnik soha»sida ta'lim olayotgan barcha yo'nalish bakalavriat talabalari uchun «Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» fanidan «Nuqta, to'g'ri chiziq, tekislik», «Epyurni qayta qurish usullari», «Sirtlar» va muxandislik rafikasiga oid mavzularga doir mustaqil grafik topshiriq variantlari va ularni bajarishga oid metodik qo'llanma. NDKI. Navoiy. 2020 y. 116 b.

Ushbu metodik qo'llanma O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining __ __ 20__ yildagi № ____-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» fanining o'quv dasturiga asosan tayyorlandi. Metodik qo'llanma dars jarayonida va darsdan tashqari mustaqil ta'limni tashkil etishda (mustaqil grafik ishlarni bajarishda) qo'llanilishi mumkin.

Metodik qo'llanma «Mashinasozlik texnologiyasi» kafedrasining ____.20__ yildagi __- sonli yig'ilishida ko'rib chiqildi va Energo-mexanika fakultetining __. __. 20__ yilgi __- sonli majlisida ma'qullandi hamda chop etish uchun Navoiy davlat konchilik instituti o'quv-uslubiy Kengashiga tavsiya etildi.

Taqrizchilar:

B.S. Iskandarov

MCHJ "Navoi binokor loyiha"
institute bosh muxandis

Mo'minov R.. -

Navoiy davlat konchilik instituti,
"Mashinasozlik texnologiyasi"
kafedrasi dotsenti, texnika fanlari
nomzodi

MUNDARIJA

№	Mavzuning nomi	beti
	Mundarija	3
1	Kirish	4
2	1-dars. Mavzu: Chizma normallari. Davlat sandartlari. Chizma formatlari. Mashtablar.	6
3	2-dars. Mavzu: Chizma shriftlari. O'lcham qo'yish. Chizmada materiallarning grafik belgilanishi	8
4	3-dars. Mavzu: nuqta. Xususiy vaziyatdagi nuqtalar.	13
5	4-dars Mavzu: To'g'ri chiziq.	17
6	5,6-dars Mavzu: Ikki to'g'ri chiziqning o'zaro holatlari.	18
7	7 - dars. Mavzu: To'g'ri chiziq kesmasining xaqiqiy uzunligini va proektsiyalar tekisliklari bilan hosil qilgan burchklarini aniqlash	22
8	8-dars Mavzu: Tekislik. Tekislikning izlari.	24
9	9- dars Mavzu: Nuqta. to'g'ri chiziq. tekislik	26
10	10-dars. Mavzu: Ikki tekislikning o'zaro joylashuvi	28
11	11- dars. Mavzu: To'g'ri chiziq va tekislik. To'g'ri chiziq bilan tekislikning parallelligi.	32
12	12- dars Mavzu: To'g'ri chiziq bilan tekislikning va ikki tekislikning parallelligi. ikki tekislikning perpendikulyarligi	34
13	13- dars. Mavzu: Sirtlar. Ikki sirtning o'zaro kesishish chizig'ini (qurish) yasash usullari, yordamchi kesuvchi tekisliklar usuli.	37
14	14- dars. Mavzu: Tekisliklar bilan sirtlar kesishuvi	38
15	15- dars. Mavzu: Qirqim va kesim. Qirqimlarning belgilanishi	39
16	16- dars. Mavzu: Aksonometrik ko'rinishlar	43
17	17- dars. Mavzu: ajraladigan birikmalar. rezbalar turlari va ularni chizmada tasvirlash, belgilash.	45
18	18- dars. Mavzu: Eskizlar va eskizlarni bajarish bosqichlari	48
19	1-Mustaqil ish (1-Epyur). <u>1-masala</u> . ABC uchburchak tekisligidan D nuqtacha bo'lgan masofaning haqiqiy kattaligi yasalsin.	51
20	2-Mustaqil grafik ish (2-Epyur) Nuqta. To'g'ri chiziq. Tekislik.	59
21	3-Mustaqil grafik ish (Epyur). Ko'pyoqlar. Ko'pyoqlarni o'zaro kesishishi.	65
22	4-Mustaqil ish (epyr) Egri sirtlarni tekislik bilan kesishishi	70
23	5-Mustaqil grafik ish (Epyur) Egri sirtlarni o'zaro kesishishi.	77
24	Topshiriqlar. Variantlar	83
25	Asosiy adabiyotlar	116

Kirish

Hozirgi davrda chizma asosiy texnik hujjat hisoblanadi ya'ni biror-bir zamonaviy mashina va mexanizmlar yoki qurilmalar ularni chizmalarisiz yashalmaydi. Zamonaviy mashinasozlik jihozlari va turli xil inshootlar formalari ko'pyoqlarni bir nechta tekisliklar bilan kesishidan yoki turli xil ko'pyoqlarni, sirtlarni kesishidan hosil qilinadi. Chizma geometriya fani umumtexnikaviy fan bo'lib, u talabalarga umummuhandislik va maxsus texnikaviy fanlarni o'rganishlarida zamin bo'ladi. Ishlab chiqarishda istalgan yangi detalni yasashda, mashina, mexanizmlarni tayyorlash uchun ularning loyihasini qog'ozga tasvirlash kerak, ya'ni chizmasini chizish kerak bo'ladi. Hozirgi vaqtda texnika yo'nalishida ta'lim olayotgan bakalavrlar, bugungi kunni talabiga javob beradigan darajada grafik tayyorgarlikka ega bo'lishlari zarur. Ular chizmalar yordamida o'zlarini ijodiy o'ylarini, texnikaviy fikrlarini bayon qilib, amaliyotga tadbiq qila olishlari kerak. «Chizma geometriya» fanidan amaliy mashg'ulotlar to'plami o'quv qo'llanmasi kafedra professor - o'qituvchilari tomonidan o'zbek va rus tillarida o'qilayotgan ma'ruzalar matniga tegishli 18 amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishga mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma tarkibiga "Chizma geometriya" fanining barcha mavzulari bo'yicha uslubiy jihatdan masalalar kiritilgan bo'lib, hozirgi zamon yangi pedagogik texnologiyalari asosida "Nuqta" va "To'g'ri chiziq" mavzulariga test savollari berilgan. Shu bilan birga yakuniy yozma ish savollaridan namunaviy masalalarning yechimi va algoritmi, Respublikamizda o'tkaziladigan olimpiada masalalaridan namunalar, mustaqil ta'lim uchun bir qator masalalar kiritilgan.

Metodik qo'llanmadagi masalalarni yechish uchun ma'ruzalar va chizma geometriya darsliklaridan ma'lum bo'lgan quyidagi asosiy yasashlarni:

1. To'g'ri chiziqning haqiqiy uzunligini topish;
2. To'g'ri chiziq izlarini aniqlash;
3. Tekislikda umumiy vaziyatdagi to'g'ri chiziq, gorizontal, frontal o'tkazish;
4. Tekislikda nuqta tanlash;
5. Nuqta orqali umumiy vaziyatdagi tekislik o'tkazish;
6. To'g'ri chiziq orqali gorizontal, frontal proeksiyalovchi tekisliklar o'tkazish;
7. Ikki parallel yoki kesishuvchi chiziqlar bilan berilgan tekisliklarning izlarini o'tkazish;
8. Berilgan nuqta orqali tekislikka parallel tekislik o'tkazish;
9. Izlari bilan berilgan ikki tekislikning kesishish chizig'ini yasash;
10. Berilgan nuqta orqali tekislikka parallel to'g'ri chiziq o'tkazish;
11. Berilgan nuqta orqali to'g'ri chiziqqa parallel tekislik o'tkazish;
12. To'g'ri chiziqning tekislik bilan uchrashish nuqtasini topish;
13. Nuqtadan tekislikka perpendikulyar o'tkazish;
14. Nuqtadan berilgan to'g'ri chiziqqa perpendikulyar tekislik o'tkazish;
15. Nuqtadan berilgan tekislikka perpendikulyar tekislik o'tkazish;
16. Kesmaning haqiqiy uzunligini aylantirish usulidan foydalanib topish;
17. Tekislikni proeksiyalar tekisligiga joylashtirish;
18. Kesmaning haqiqiy uzunligini joylashtirish usulida topish;
19. Kesmaning haqiqiy uzunligini proeksiyalar tekisligini almashtirish usulidan foydalanib topish;
20. Chiziqli burchakning haqiqiy kattaligini aniqlash;
21. Ko'pyoqlik sirtida nuqta tanlash;
22. Sirtlarni to'g'ri chiziq bilan uchrashish nuqtasini aniqlash;
23. Sirtlarni tekislik bilan kesishish chiziqlarini aniqlash;
24. Sirtlarning o'zaro kesishish chizig'ini aniqlashni har bir talaba puxta o'zlashtirgan bo'lishi talab qilinadi.

Chizma geometriya fanining amaliy darslarini puxta o'zlashtirish uchun talabalar nazariy mavzularni o'rganib, tahlil qilib kelishlari shart.

1, 2- DARS MAVZU: CHIZMA NORMALLARI

1- dars. Davlat sandartlari:

Guruhdagi standartlar mazmuni	Standart raqami
Umumiy qoidalar	DS 2.001-70...DS 2.004-83
Asosiy qoidalar	DS 2.101-68...DS 2.124-85
Buyumlarning konstruktorlik hujjatlaridagi klassifikatsiyasi va belgilanishi	DS 2.201-80
Chizmalarni rasmiylashtirish bo'yicha umumiy qoidalar	DS 2.301-68...DS 2.32-84
Mashinasozlik va asbobsozlik buyumlari chizmalarini taxt qilish qoidalar	DS 2.401-68...DS 2.430-85
Konstruktorlik hujjatlari bilan muomala qilish (hisob, saqlash, nusxa olish, o'zgartirish kiritish) qoidalar	DS 2.501-68...DS 2.505-82
Ekspluatatsiya va ta'mirlash hujjatlarini taxt qilish qoidalar	DS 2.601-68...DS 2.609-85
Sxemalarni taxt qilish qoidalar	DS 2.701-76...DS 2.797-81
Qurilish va kemalar qurish hujjatlari taxt qilish qoidalar	DS 2.801-74...DS 2.857-75
Boshqa standartlar	

DS DS 2.301-68. Chizma formatlari.

Chizmalar format deb ataluvchi standart o'lchamli chizma qog'ozlariga chiziladi. Tomonlarining o'lchami 1189×841 mm va yuzasi 1 m² bo'lgan qog'oz A0 formatli chizma qog'oz deyiladi. A0 format qog'ozini teng bo'laklarga bo'lishdan hosil bo'lgan qog'ozlar asosiy formatlar hisoblanadi.

Format belgisi	A4	A3	A2	A1	A0
Qog'oz tomonlarining o'lchami, mm	297×210	297×420	594×420	594×841	1189×841

DS 2.302-68. Mashtablar.


Chizmada tasvirlangan buyumning chiziqli o'lchamlarini shu buyum xaqiqiy o'lchamlariga nisbati chizmaning masshtabi deyiladi. Masshtab sonining nisbati oldiga "M" masshtab belgisi qo'yiladi. Masalan, M1:1 natural o'lchamdagi chizilgan chizma masshtabini ifodalaydi.

Davlat standartiga muvofiq chizmaning masshtablari quyidagi qatorlardan tanlab olinadi.

Kichraytirish masshtabi	1:2; 1:2,5; 1:4; 1:5; 1:10 va boshqalar
Kattalashtirish masshtabi	2:1; 2,5:1; 4:1; 5:1; 10:1; 20:1; 40:1; va boshqalar

1-shaklda tekis shaklning natural (M1:1), kichiklashtirilgan (M1:2) va kattalashtirilgan (M2:1) masshtablardagi tasvirlari ko'rsatilgan. Masshtab qanday bo'lishidan qat'iy nazar o'lcham sonlarining xaqiqiy natural qiymatlari qo'yiladi.

Masshtab qiymati chizmadagi asosiy yozuvning maxsus katagiga yozilganda, M harfi yozilmaydi (5-shakldagi 6-katak). Qolgan hollarda M1:1, M2:1 ko'rinishida yozilishi kerak.







1.1- shakl

DS 2.303-68. Chiziqlar.

Chizma chiziqlari standartlari ko'rsatmalarga binoan turli yo'g'onlik va shaklga ega bo'lgan chiziqlardan foydalanib bajariladi. Chizma chiziqlarining nomi, ko'rinishi, ularning asosiy tutash chizig'iga nisbatan yo'g'onliklari va vazifalari haqidagi ma'lumot 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Chiziq nomi	Ko'rinishi	Qalinligi	Asosiy vazifasi
1. Asosiy tutash chiziq		S	Ko'rinar kontur chiziq Ko'rinar o'tish chizig'i Kesim konturi

2. Ingichka tutash chiziq		S/2 ... S/3	Ustiga chizilgan kesim konturi O'lcham chiqarish chiziqlari Shtrixovka chiziqlari Chiqaruvchi chiziqlar Chiqaruvchi chiziqlar tokchalari va yozuv osti chiziqlari Chegaralovchi detallar tasviri chiziqlari Ko'rinish, qirqim va kesimlarda chiqarilgan elementlar chegarasi Tekislik izlari, maxsus qurishlarda xarakterli nuqtalarni qurish chiziqlari
3. Tutash to'liq chiziq		S/2 ... S/3	Uzish chiziqlari Ko'rinish va qirqimning chegara chiziqlari
4. Shtrix chiziq		S/2 ... S/3	Ko'rinmas kontur chiziq Ko'rinmas o'tish chizig'i
5. Shtrixpunktir chiziq		S/2 ... S/3	Markaziy va o'q chiziqlari
6. Ikki nuqtali shtrixpunktir chiziq		S/2 ... S/3	Yoyilmalarda bukilish chiziqlari Buyum qismlarining chetki va oraliq holatlari tasvirlash
7. Yo'g'on shtrixpunktir chiziq		S/2 ... S2/3	Issiq ishlov berishni va qoplashni talab qiluvchi sirtlarni belgilash chiziqlari Kesuvchi tekislikdan oldinda yotgan elementlarni tasvirlash chiziqlari
8. Uzuq chiziq		1,5 S	Kesim chizig'i
9. Ingichka siniq tutash chiziq		S/2 ... S/3	Uzun uzilish chiziqlari

2-DARS. CHIZMA SHRIFTLARI

Chizmalardagi barcha yozuvlar, harf va raqamlar 2.304-81 DS «Chizma shriftlari» asosida yoziladi.


Shriftlarning o'lchamlari bosh harfning millimetr hisobida berilgan h balandligi bilan aniqlanadi.

Shriftlarning quyidagi o'lchamlari mavjud: (1,8); 2,5; 3,5; 5; 7; 10; 14; 20; 28; 40. Balandligi 1,8 ga teng bo'lgan shriftni ishlatish tavsiya etilmaydi.

Shriftlarning A va B turlari mavjud bo'lib, A turdagi shriftlarning harf chiziqlarining qalinligi d bosh harf balandligining 1/14 qismiga ($d=h/14$), B turida (9.4-shakl) esa 1/10 qismiga ($d= h/10$) teng qilib olingan.

Davlat standartiga asosan shriftlar maxsus yordamchi to'rlar asosida bajariladi. Bu shriftlarning shakli, harf va raqamlar ko'rinishlarini, ularning elementlari orasidagi nisbatlarni to'g'ri bajarilishiga yordam beradi (3-shakl).

Yordamchi to'rning qadami shrift chizig'ining qalinligi d ga bog'liq.



2.1a,b-shakl

2-jadvalda 3,5 dan 14 gacha bo'lgan shriftlarning harf va raqamlari balandligi bilan qolgan o'lchamlari orasidagi nisbatlar keltirilgan.

2.1-jadval

Shrift parametri	Belgisi	Nisbiy o' lchami, D	Shrift o' lchami				
A turdagi shriftlar uchun d= h/14							
Bosh harf balandligi	h	14	3,5	5,0	7,0	10,0	14,0
Yozma harf balandligi	c	10	2,5	3,5	5,0	7,0	10,0
Harflar orasidagi masofa	a	2	0,5	0,7	1,0	1,4	2,0
So'zlar orasidagi masofa	e	6	1,5	2,1	3,0	4,5	6,7
B turdagi shriftlar uchun d= h/10							
Bosh harf balandligi	h	10	3,5	5,0	7,0	10,0	14,0
Yozma harf balandligi	c	7	1,8	3,5	5,0	7,0	10,0
Harflar orasidagi masofa	a	2	0,7	1,0	1,4	2,0	2,8
So'zlar orasidagi masofa	e	6	2,1	3,0	4,2	6,0	8,4

5 7 10 7 5 7 12 44 7 7 10 8 7 44 20 44 7 24 7 7 43 24 7 5	Navoiy davlat konchilik instituti Energo-mexanika fakulteti <i>"Mashinasozlik texnologiyasi va mashinasozlik ishlab chiqarishlarini avtomatlashtirish" kafedras</i> Chizma geometriyadan MUSTAQIL ISHLAR TO'PLAMI 20 -20 o'quv yili I-semestr Bajardi: 5-. MT guruh talabasi Yarqulova A. Qabul qildi: Navoiy-20 yil	5
--	---	---

2.2-shakl

CHGMG.GCH.12-04.02.003			
	Familyasi	Imzo	Sana
Chizdi	Abdullaev		
Tekshirdi	Holmurzaev		
Tasdiqladi	Alijonov		
Geometric chizmachilik			
		Litr	Massa
		σ	1:1
		List	Listlar
FarPI, 12-04 MT			

2.4- shakl.

Asosiy yozuv

Asosiy yozuvning o'lchamlari uni to'ldirish namunasi 6-shaklda ko'rsatilgan. Unda belgilangan kataklarni quyidagicha to'ldirish mumkin.

1-katak. Chizmaning nomi.

2-katak. Chizmaning kodli belgisi, (7-shrift bilan yoziladi). Chizma kodi, masalan, quyidagicha bo'lishi mumkin:

ChGIG.GCh.9-95.02.001

Bu yerda ChGIG - chizma geometriya va muhandislik grafika kafedrası, GCh - geometrik chizmachilik (PCh - proeksion chizmachilik, MCh - mashinasozlik chizmachiligi), 9-95 - talaba guruhi raqami, 02 - talabaning varianti raqami, 001 - bajarilayotgan qog'ozning tartib raqami.

3-katak. Detalning materiali.

4-katak. Chizmaning literi. O' - o'quv, K - kurs ishi, D - diplom ishi, L - loyiha.

5-katak. Buyumning vazni.

6-katak. Chizmadagi tasvir masshtabi.

7-katak. qog'ozning tartib raqami.

8-katak. Hujjatdagi umumiy qog'ozlar soni.

9-katak. Hujjatni tayyorlagan korxonaning nomi.

10-katak. Chizmani tayyorlanishiga mas'ul shaxslar imzosi.

11-katak. Chizmani tayyorlanishiga mas'ul shaxslar familiyasi.


O'lcham qo'yish

Chizmalardagi barcha o'lchamlar 3.207-68 DS ga muvofiq qo'yiladi. Chizmada berilgan barcha o'lchamlar mumkin qadar kam bo'lishi va shu bilan birga buyumni yasash hamda uni nazorat qilish uchun yetarli bo'lishi kerak.

O'lcham chiziqlari iloji boricha detal konturidan tashqarida o'tkazilishi va o'zaro kesishmasligi kerak. O'lcham chiziqlari uchlariga strelkalar qo'yiladi. Strelkalar detalning o'lchami qo'yilayotgan qismidan chiqqan chiqarish chiziqlariga yoki detal konturiga taqalgan bo'lishi kerak.


Chizmadagi o'lcham sonlari, chizmaning qanday masshtabda bajarilishidan qat'iy nazar, buyumning xaqiqiy o'lchamini ko'rsatishi va iloji boricha o'lcham chizigining o'rtasiga yozilishi lozim. Aylananing diametri $\varnothing$ bilan, yoyning radiusi R belgisi bilan, konuslikni $\triangleright$ bilan, qiyalikni $\angle$ belgi bilan yoziladi.

2.5-shaklda turli shakllarga o'lcham qo'yishga misollar keltirilgan.




Joy kichik bo'lgan hollarda o'lcham qo'yish

Radius katta bo'lgan joylarda markazni yoyga yaqin qilib ko'rsatish



Strelkalar o'rniga nuqtalar qo'yish mumkin



Sharning radiusi yoki diametrini ko'rsatish.

2.5-shakl. Shaklga o'lcham qo'yishga misollar.


Chizmada materiallarning grafik belgilanishi

2.306-68 DS ga binoan barcha chizmalardagi qirqim va kesim yuzalari shtrixlashning turlari chizilayotgan buyumning materialiga qarab tanlab olinadi..2.5-shaklda materiallarning kesim va qirqim yuzalarining grafik belgilari - shtrixlash ko'rsatilgan.

Shtrixlash chiziqlari chizma ramkasi chiziqlariga nisbatan 45° burchak ostida chiziladi. Agar shtrix chiziqlarnig yo'nalishi kontur chiziqlari yo'nalishi bilan to'g'ri kelib qolsa, shtrixlash 30° yoki 60° burchak ostida bo'lishi mumkin. Shtrixlash chiziqlari orasidagi masofa kesim yuzasining katta kichikligiga qarab 1 mm dan 10 mm gacha olinadi. Yog'och, suyuqlik, grunt, shisha, qum materiallarning shtrixlari (to'g'ri chiziqlisidan tashqari) qo'lda bajariladi.

Metallarni grafik belgilanishi

DS.2.30668




2.5-shakl

3-DARS MAVZU: NUQTA

Tasvirlanaetgan nuqta eki nuqtalar sisremasi fazoning birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi, beshinchi, oltinchi, ettinchi, sakkizinchi choraklarida eki proektsiya tekisliklaridan birida e'xud ularning kesishuv chizig'ida bo'lishi mumkin. Quyidagi tasvirda fazoning birinchi choragida turgan A nuqta va uning H, V, W proektsiya tekisliklarida to'g'ri burchakli proektsiyalari ko'rsatilgan.

Nuqtaning proektsiyalarini yasash uchun undan gorizontall proektsiyalar

tekisligiga perpendikulyar tushirmiz va perpendikulyarning asosini a bilan belgilaymiz, so`ngra berilgan nuqtadan frontal proektsiyalar tekisligiga perpendikulyar tushirmiz va bu perpendikulyarning asosini a' bilan belgilaymiz va berilgan nuqtadan profil proektsiyalar tekisligiga perpendikulyar tushiramiz va bu perpendikulyarning asosini a'' bilan belgilaymiz. (3.1.a-shakl)




3.1.a-shakl

Xususiy vaziyatdagi nuqtalar.

Agar nuqtaning koordinatalaridan bin O ga teng bo'lsa, nuqta proektsiyalar tekisliklaridan birida yotadi.


Birinchi oktantda joylashgan xususiy vaziyatdagi nuqtalar chizmada keltirilgan.

Agar $X = O$, $Y = O$, $Z \neq O$ bo'lsa, nuqta e V Agar $X \neq O$, $Y \neq O$, $Z = O$ bo'lsa, nuqta e H Agar $X = O$, $Y \neq O$, $Z \neq O$ bo'lsa, nuqta e W (3.1.b-shakl)




3.1.b-shakl

1-misol. Berilgan har bir nuqtaning koordinatalari bo'yicha tegishli oktantlarda ularning fazoviy tasviri va tekis chizmasi chizilsin



3.2.a-shakl

2-misol. Nuqtalarning tekis chizmalarida berilgan proeksiyalariga binoan ularning har biri fazoning qaysi choraklarida joylashganligi aniqlansin. Javobi simbolika bilan yozilsin.




3.2.b-shakl

Mavzu:	NUQTA			Variant:	0
Masalaning sharti	JAVOBLAR				
	1	2	3	4	5
1. Qaysi nuqta e H?					
2. Qaysi chizmada nuqta e bisektor tekisligiga?					
3. Qaysi nuqta W ga yaqin joylashgan?					
4. Qaysi chizmada nuqta e (Ox)?					
5. Qaysi chizmada nuqta $A=S_{(Ox)}(B)$?					

4-DARS MAVZU: TO'G'RI CHIZIQ

To'g'ri chiziq eng oddiy geometrik figura xisoblanadi. Ikki nuqta orasidagi eng qisqa masofa to'g'ri chiziq kesmasini beradi. To'g'ri chiziq ikki nuqta orqali aniqlanishiga ko'ra, epyurda to'g'ri chiziqlarning proektsiyalarini yasash uchun nuqtalarning bir nomli proektsiyalarini o'zaro tutashtirish kerak. To'g'ri chiziq H , V va W proektsiya tekisliklariga nisbatan ikki xil, ya'ni umumiy va xususiy vaziyatda joylashishi mumkin. (4.1-shakl)




(4.1-shakl)

1 - misol. Koordinatalari bilan berilgan AB to'g'ri chiziq kesmasining epyuri chizilsin. AB kesmaning haqiqiy uzunligi va proektsiyalar tekisliklariga nisbatan og'ish burchaklari aniqlansin.

Agar fazodagi to'g'ri chiziq uchchala proektsiya tekisliklariga nisbatan ogma ravishda joylashgan bo'lsa bunday to'g'ri chiziq umumiy vaziyatdagi to'g'ri chiziq deyiladi.

Agar fazodagi to'g'ri chiziq proektsiya tekisliklaridan biriga parallel eki perpendikulyar bo'lsa, bunday to'g'ri chiziq xususiy vaziyatdagi to'g'ri chiziq deyiladi. Proektsiya tekisliklarida etgan to'g'ri chiziqlar ham shu guruhga kiradi.




(4.2 shakl)



5, 6 - DARS MAVZU: IKKI TO'G'RI CHIZIQNING O'ZARO HOLATLARI.

Umumiy vaziyatdagi to'g'ri chiziqning proektsiyalari

Umumiy vaziyatdagi to'g'ri chiziq kesmasining to'g'ri burchakli proektsiya hamma vaqt o'zidan qisqa bo'ladi, ya'ni $[ab] < [AB]$; $[a'b'] < [AB]$; $[a'b'] < [AB]$. (5.1-5.2.shakllar)





5.1-shakl



5.2-shakl

Gorizontal to'g'ri chiziq.

Gorizontal proektsiyalar tekisligiga parallel bo'lgan to'g'ri chiziq, gorizontal to'g'ri chiziq deb ataladi. Gorizontalning barcha nuqtalari H tekislikdan baravar uzoqlikda bo'ladi, yani $h \parallel H$. Shuning uchun epyurda gorizontal chiziqning frontal proektsiyasi OX o'qiga, profil proektsiyasi OY o'qiga parallel bo'ladi. (5.3-shakl).




5.4-shakl

Shuningdek, gorizontal chiziq kesmasining gorizontal proektsiyasi uning xaqiqiy o'lchamiga teng bo'lib proektsiyalanadi.

Frontal to'g'ri chiziq.

Frontal proektsiyalar proektsiyalar tekisligiga parallel bo'lgan to'g'ri chiziq, frontal to'g'ri chiziq deb ataladi. Frontalning barcha nuqtalari V tekisligidan baravar uzoqlikda bo'ladi, yani $f \parallel V$. Shuning uchun epyurda frontal chiqning gorizontal proektsiyasi OX o'qiga, profil proektsiyasi OY o'qiga parallel

boʻladi. Frontal chiziq kesmasining frontal proektsiyasi uning haqiqiy oʻlchamiga teng boʻlib proektsiyalanadi (5.5-shakl).




5.5-shakl

Profil toʻgʻri chiziq.

Profil proektsiyalar tekisligiga parallell boʻlgan toʻgʻri chiziq, profil toʻgʻri chiziq deb ataladi..Profil toʻgʻri chiziqning barcha nuqtalari W tekisligida baravar uzoqlikda boʻladi, yani $p \parallel W$.

Shuning uchun profilning gorizontal proektsiyasi OY oʻqiga, frontal proektsiyasi OZ oʻqiga parallel boʻladi.

Profil toʻgʻri chiziq, kesmasining profil proektsiyasi uning haqiqiy oʻlchamiga teng boʻlib proektsiyalanadi (5.6-shakl)



5.6-shakl


Proektsiyalar tekisligiga perpendikulyar toʻgʻri chiziqlar.

Proektsiyalar tekisligiga perpendikulyar toʻgʻri chiziqlar proektsiyalovchi toʻgʻri chiziqlar deb ataladi.

Proektsiyalovchi toʻgʻri chiziqlar gorizontal, frontal va profil toʻgʻri chiziqlarga boʻlinadi.


Gorizontal proektsiyalovchi toʻgʻri chiziqlar. Gorizontal proektsiyalar tekisligiga perpendikulyar toʻgʻri chiziq gorizontal

proektsiyalovchi to`g`ri chiziqlar deb ataladi. Bu to`g`ri chiziq H tekisligiga nuqta bo`lib proektsiyalanadi. Uning frontal va profil proektsiyalari OZ o`qiga parallel bo`ladi (5.7-shakl).




5.7-shakl

Frontal proektsiyalovchi to`g`ri chiziq. Frontal proektsiyalar tekisligiga perpendikulyar to`g`ri chiziqlar frontal proektsiyalovchi to`g`ri chiziqlar deb ataladi. Bunday to`g`ri chiziq V tekisligiga nuqta bo`lib proektsiyalanadi. Uning gorizontal va profil proektsiyalari OY o`qiga parallel bo`ladi (5.8-shakl)




5.8-shakl

Profil proektsiyalovchi to`g`ri chiziqlar. Profil proektsiyalar tekisligiga perpendikulyar to`g`ri chiziqlar profil proektsiyalovchi to`g`ri chiziqlar deyiladi. Bu to`g`ri chiziqlar profil tekisligiga nuqta bo`lib proektsiyalanadi. Profil proektsiyalovchi to`g`ri chiziqning gorizontal va frontal proektsiyalari OX o`qiga parallel bo`ladi (5.9-shakl).



5.9-shakl

1 – misol. Berilgan AB to'g'ri chiziq va C nuqta. C nuqtadan o'tgan va AB to'g'ri chiziqni kesib o'tuvchi: a) umumiy vaziyatdagi EF b) gorizontal F v) frontal DK to'g'ri chizig'i chizilsin. (5.10-shakl)



5.10-shakl

7 - DARS. TO'G'RI CHIZIQ KESMASINING XAQIQIY UZUNLIGINI VA PROEKTSIYALAR TEKISLIKLARI BILAN HOSIL QILGAN BURCHKLARINI ANIQLASH

To'g'ri chiziq kesmasining xaqiqiy o'lchami va uning proektsiyalar tekisliklari bilan hosil qilgan burchaklarini to'g'ri burchakli uchburchak yasash yo'li bilan aniqlanadi. Fazoda umumiy vaziyatdagi AB to'g'ri chiziq kesmasi berilgan. Kesmaning A nuqtasidan AE II a b to'g'ri chiziq o'tkazamiz vaziyat to'g'ri burchakli ABE ni hosil qilamiz: bu uchburchakning bitta AE kateti kesmaning gorizontal proektsiyasiga ($AE = ab$), ikkinchi BE kateti esa kesma A va B uchlarning H tekisligidan uzoqliklarining algebraik ayirmasiga teng bo'ladi:

$BE = Bb - Aa$, bu erda $Aa = Eb$. Demak, $BE = Bb - Eb = Z$ bo'lsin


To'g'ri burchakli ABE ning AB gipotenuzasi AE katet bilan burchak hosil qiladi. Bu burchak AB kesmaning H tekisligi bilan hosil qilgan burchagi bo'ladi.

To'g'ri chiziq kesmasining V proektsiyalar tekisligi bilan hosil qilgan burchagini aniqlash uchun to'g'ri burchakli ABF dan foydalanamiz.


Bu uchburchakning AF kateti AB kesmaning frontal proektsiyasi $a' b'$ ga, ikkinchi AE kateti uning A vaziyat B uchlarining V tekislikdan uzoqliklarining algebraik ayirmasiga teng bo'ladi. $AF = A a' - B b'$, bu erda $B b' = Fa$. /

;

Demak, $AF = Aa - Fa = \Delta Y$, bo'lsin. (7.1-chizma)



7.1-chizma




7.2-chizma

To'g'ri burchakli $\triangle ABF$ ning AB gipotenuzasi BF katet bilan β burchak xosil qiladi. Bu β burchak AB kesmaning V tekislik bilan xosil qilgan burchagi bo'ladi. Burchakni aniqlash uchun to'g'ri burchakli $\triangle ABN$ dan foydalanamiz. Fazoviy modelidan ko'rinib turibdiki, bu uchburchakning bir kateti AB kesmaning profil $a''b''$ proektsiyasiga, ikkinchi kateti kesma A va B uchlarining W tekislikdan uzoqliklarining algebraik ayirmasiga teng bo'ladi: $AN = Aa'' - Bb''$, bu erda $Bb'' = Na''$. Demak, $AN = Aa''$, $Na'' = \Delta X$ bo'ladi.

Ikki to'g'ri chiziqning o'zaro joylashuvi


Ikki to'g'ri chiziq fazoda o'zaro parallel, kesishuvchi yoki uchrashmas (ayqash) vaziyatlarda bo'lishi mumkin:



7.2-chizma


Parallel to'g'ri chiziqlar. Fazoda o'zaro parallel bo'lgan chiziqlarning bir nomli proektsiyalari ham o'zaro parallel bo'ladi, yani $AB \parallel CD$ bo'lsa, $ab \parallel cd$; $a'b' \parallel c'd'$; $a''b'' \parallel c''d''$ bo'ladi.(7.2-chizma)

Kesishuvchi to'g'ri chiziqlar. Afar ikki to'g'ri chiziq fazoda umumiy bir nuqtaga ega bo'lsa, kesishuvchi to'g'ri chiziqlar deyiladi. Kesishuvchi to'g'ri chiziqlar proektsiyalar ning kesishish nuqtalari to'g'ri chiziqlar kesishish nuqtasining proektsiyalari bo'ladi.(7.3-chizma)



7.3-chizma

Uchrashmas to'g'ri chiziqlar. Ikki to'g'ri chiziq o'zaro parallel bo'lmasa, yoki kesishmasa ular uchrashmas(ayqash) to'g'ri chiziqlar deyiladi. Malumki, parallel vaziyat kesishuvchi to'g'ri chiziqlar bitta tekislikka tegishli bo'ladi. Uchrashmas(ayqash) to'g'ri chiziqlar esa, bir tekislikda yotmaydi. Uchrashmas to'g'ri chiziqlarning bir nomli proektsiyalari epyurda o'zaro kesishsa ham, ammo kesishish nuqtalari bir bog'lovchi chiziqqa tegishli bo'lmaydi. Masalan, AB va EF uchrashmas chiziqlar berilgan. Bu to'g'ri chiziqlar proektsiyalarining 1, 2 va 3, 4 kesishish nuqtalari fazoda bu to'g'ri chiziqlarning xar biriga, tegishli ikki nuqtaning proektsiyalari bo'ladi, yani, 1 AB , 2 EF va 3 EF , 4 AB .(7.4-chizma)




3.5-chizma


8-DARS MAVZU: TEKISLIK

Tekislik birinchi tartibli sirt hisoblanadi. Chunki u birinchi darajali algebraik tenglama bilan ifodalanadi. Fazodagi tekislik chizmada quyidagicha beriladi:


- a) bir to'g'ri chiziqda yotmagan uch nuqta bilan(8.1-chizma);
- b) to'g'ri chiziq va bu chiziqda yotmagan bir nuqta bilan (8.2-chizma);
- v) tekislik geometrik shaklning ortogonal proektsiyalari orqali (8.3-chizma);
- g) ikkita parallel chiziqlar bilan(8.4-chizma);
- d) kesishuvchi chiziqlar bilan(8.5-chizma);
- e) tekislik izlari bilan berilishi mumkin(8.6-chizma).





8.1-chizma



8.2-chizma




8.3-chizma



TEKISLIKNING IZLARI

Fazodagi tekislik proektsiya tekisliklari bilan kesishib, bir nomdagi izini beradi. P tekislikning H tekislik bilan kesishgan P_H chizig'i uning gorizontali izi, V tekislik bilan kesishgan P_V chizig'i frontal izi va W tekislik bilan kesishgan P_W chizig'i profil izi deb ataladi.


Tekislikning koordinata o'qlari bilan kesishgan nuqtalari tekislik izlarining uchrashuv nuqtalari deyiladi. Bu nuqtalar tekislikning ikkita izining kesishishidan xosil bo'ladi (8.6-chizma).



8.6-chizma

Tekislikning proyeksiyalar tekisliklari bilan kesishgan chiziqlari **tekislikning izlari** deyiladi.

1 - misol. AB to'g'ri chiziq orqali mumkin bo'lgan xususiy holatdagi tekisliklar o'tkazilsin. Har bir tekislik uchun fazoning har qaysi burchaklarida joylashgan va ulardan o'tuvchi bittadan ixtiyoriy nuqta olinsin. 8.7-chizma



1. $Q \subset (AB) \wedge Q \perp V$?

$Q(Q_V, Q_H)$?


$Q \subset (AB) \wedge Q \perp V \Rightarrow Q_V \equiv (a'b') \wedge Q_H \perp (Ox)$

$Q \subset I, II, III, IV$

$A \in I, C \in II, D \in IV, E \in III$

8.7-chizma

1 - misol. P tekislikda yotuvchi nuqtaning yetishmagan proeksiyasi topilsin : Masalani yechish uchun tekislikni quyidagi chiziqlaridan foydalanilsin:
1) gorizontal. 2) frontal. 3) umumiy holatdagi to'g'ri chiziq. 8.8-chizma




8.8-chizma

9- DARS MAVZU: NUQTA. TO'G'RI CHIZIQ. TEKISLIK

To'g'ri chiziq orqali tekislik o'tkazish

Ko'pgina masalalarda to'g'ri chiziq orqali tekislik o'tkazish so'raladi. To'g'ri chiziq orqali proektsiyalovchi tekislik o'tkazilganda, uning bir izi proektsiyasi orqali o'tadi. (9.1-chizma)




9.1-chizma

1. Gorizontalga proektsiyalovchi tekislikning gorizontal izi to`gri chiziqlarning gorizontal proektsiyasidan o`radi.
2. Frontal proektsiyalovchi tekislikning frontal izi to`gri chiziqlarning frontal proektsiyasi orqali o`radi.

To`g`ri chiziq bilan tekislikning kesishish nuqtasini aniqlash


To`g`ri chiziq bilan tekislikning kesishish nuqtasini aniqlash chizma geometriyaning murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Bu masalani echish uch boskichdan iboratdir (9.2-chizma):

1. AB orqali yordamchi S tekislikni o`tkazamiz.
2. Berilgan Parallel tekisligi bilan S tekisligini kesishish chizigini topamiz.



9.2-chizma

3. AB to`g`ri chiziq bilan ikki tekislikning MN kesishish chizigini uchrashish nuqtasi, qidirilayotgan K nuqtani beradi.



9.3-chizma

1-bosqich. AB to'g'ri chiziqlarning gorizontlari proektsiyasi a b orqali gorizontlarga proektsiyalovchi tekislik Q ni o'tkazamiz.

2-bosqich. Yordamchi tekislik bilan berilgan tekislikni kesishish chizigini topamiz.

3-bosqich. Ikki tekislikni kesishish chizigining frontal proektsiyasini m n bilan a b ning kesishgan nuqtasi izlangan k nuqtani beradi. (9.4-chizma)


10-DARS. MAVZU: IKKI TEKISLIKNING O'ZARO JOYLASHUVI.

Izlari bilan berilgan tekisliklarni o'zaro kesishish chizig'ini yasash. Xususi va umumiy vaziyatda berilgan tekisliklarni o'zaro kesishish chizig'ini yasash.

Fazoda tekisliklar o'zaro ikki xil vaziyatda joylashishi mumkin: o'zaro parallel va o'zaro kesishishgan vaziyatlarda.

Izlari bilan berilgan umumiy vaziyatdagi tekisliklarni o'zaro kesishish chizig'ini yasash.


Umumiy vaziyatda berilgan $Q(Q_H, Q_V)$ va $P(P_H, P_V)$ tekisliklarning kesishishi fazoviy chizmasi 10.1-chizmada keltirilgan.



10.1 chizma.

Ikki tekislikning kesishish chizig'i bir to'g'ri chiziqdan (**MN**) iborat bo'lib, uni topish uchun tekisliklarning bir nomli izlarining kesishgan nuqtasini belgilash kifoya. $Q_V \cap P_V = (\bullet)N(n, n')$ va $Q_H \cap P_H = (\bullet)M(m, m')$


Q va P tekisliklarning kesishish chizig'ini aniqlash epyuri 10.2-chizmada ko'rsatilgan.



10.2- chizma

Agarda kesishayotgan umumiy vaziyatdagi ikki tekislikning bir nomli izlaridan biri kesishmasa, u holda tekisliklarning kesishish chizig'ini topish uchun yordamchi tekisliklar o'tkaziladi. Yordamchi tekisliklar sifatida xususiy vaziyatdagi proektsiyalovchi tekisliklar olinadi.

Berilgan umumiy vaziyatdagi ikki tekislik (10.3 chizma).



10.3-chizma.

Misol: Umumiy vaziyatdagi $Q(\Delta ABC)$ tekislik bilan gorizontall P tekislikning kesishish chizig'i topilsin. (10.4 chizma).


Berilgan:

$Q(\Delta ABC) \wedge P(P_v), P$

$\parallel H$

Topish kerak:

$(MN) = P \cap Q$




10.4 chizma.

Misol: Izlari bilan berilgan umumiy vaziyatdagi P tekislikning gorizontall Q tekislik bilan kesishish chizig'i topilsin. (10.5- chizma).

Berilgan: $P(P_H, P_v), \wedge Q(Q_v), Q \parallel H$

Topish kerak: $P \cap Q = (MN) \parallel H$




10.5-chizma.

Xulosa: Kesishayotgan tekisliklarning biri gorizontal tekislik bo'lgani uchun kesishish chizig'ining tavsifi ham gorizontal to'g'ri chiziq bo'ladi.

Amaliy mashg'ulot mavzusiga oid masalalar echish.

1-Masala. Umumiy vaziyatda berilgan $Q(\Delta ABC)$ va izlari orqali berilgan umumiy vaziyatdagi $P(P_H, P_V)$ tekisliklarning kesishish chizig'i topilsin (10.6-chizma).



10.6– chizma.

Berilgan: $Q(\Delta ABC) \wedge P(P_H, P_V)$ Topish kerak: $(MN) = Q \cap P$


Masalani echish:



1) **M** nuqtani topish uchun xususiy vaziyatdagi yordamchi gorizontal **S** tekislik o'tkazamiz. $(S \cap P) \cap (S \cap Q) = M(m, m')$.

2) **N** nuqtani topish uchun xususiy vaziyatdagi yordamchi gorizontal **R** tekislik o'tkazamiz. $(R \cap P) \cap (R \cap Q) = N(n, n')$.

Xulosa: Kesishayotgan tekisliklarning har ikkisi umumiy vaziyatda bo'lsa, ularning kesishish chizig'ining tavsifi umumiy vaziyatdagi to'g'ri chiziq bo'ladi.







1 - misol. Berilgan tekisliklarning o'zaro kesishuv chizig'ining proeksiyalari chizilsin. 10.7-chizma





10.7-chizma

2 - misol. Berilgan tekisliklarning o'zaro kesishuv chizig'ining proeksiyalari aniqlansin. 10.8-chizma



10.8-chizma

Mavzuga oid savollar.


1. Ikki tekislik qanday vaziyatlarda joylashadi?
2. Izlari bilan berilgan tekisliklarni o'zaro kesishish chizig'ini o'ziga xos yasash usullarini tushuntiring.
3. Xususiy vaziyatdagi tekisliklar deb qanday tekisliklarga aytiladi?
4. Umumiy vaziyatdagi tekisliklar deb qanday tekisliklarga aytiladi?
5. Kesuvchi tekisliklar yordamida tekisliklarni kesishish chizig'ini yasashni tushuntiring

11- DARS MAVZU: TO'G'RI CHIZIQ VA TEKISLIK

To'g'ri chiziq va tekisliklarning o'zaro joylashuvi. To'g'ri chiziq va tekislikning o'zaro paralleligi. Tekisliklarning o'zaro paralleligi. To'g'ri chiziq va tekislikning o'zaro perpendikulyarligi. Tekisliklarning o'zaro perpendikulyarligi. To'g'ri chiziq va tekisliklarning o'zaro joylashuvi.

To'g'ri chiziq tekislik bilan o'zaro kesishgan, parallel va to'g'ri chiziq tekislikka qarashli bo'lishi mumkin. Umumiy holda berilgan l to'g'ri chiziq bilan P tekislikning o'zaro vaziyati quyidagi algoritmi bo'yicha aniqlanadi (11.1-chizma):


- 1) l to'g'ri chiziq orqali Q yordamchi kesuvchi tekislik o'tkaziladi.
- 2) P va Q tekisliklarning MN kesishgan chizig'i aniqlanadi.
- 3) MN kesishgan chiziq bilan l chiziqlarning o'zaro vaziyati l to'g'ri chiziq bilan P tekislikning o'zaro vaziyatini aniqlaydi. Bunda quyidagi hollar bo'ladi:
 - a) Agar $L \cap MN = K$ bo'lsa, $L \cap P = K$ kesishuv nuqtasi hosil bo'ladi
 - b) Agar $L // MN = K$ bo'lsa, $L // P = K$ bo'ladi.
 - v) Agar $L \equiv MN = K$ bo'lsa, $L \equiv P = K$ bo'ladi.



(11.1-chizma)

To'g'ri chiziq bilan tekislikning paralleligi.

Bizga ma'lumki, biror L to'g'ri chiziq Q tekislikka qarashli L to'g'ri chiziqqa parallel bo'lsa, Q tekislikka ham parallel bo'ladi. Demak, Q tekislikka parallel bo'lgan biror L to'g'ri chiziqni yasash uchun unga parallel va Q tekislikka qarashli biror e to'g'ri chiziqni tanlash lozim. 11.2-chizma A nuqta orqali Q (Q_h, Q_v) tekislikka parallel l to'g'ri chiziq o'tkazilgan nuqta buning uchun Q tekislikka ixtiyoriy e to'g'ri chiziq tanlangan va A nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq proyeksiyasi e to'g'ri chiziqlarning bir nomli proyeksiyalariga mos ravishda parallel qilib o'tkazilgan. Epyurda $L' // e'$, $L'' // e''$ deb olingan.




11.2-chizma

Mavzuga oid savollar.

1. To'g'ri chiziq bilan tekislik qanday holatlarda bo'ladi?
2. To'g'ri chiziq bilan tekislikning o'zaro vaziyatini aniqlash algoritmi qanday bo'ladi?
3. Qachon to'g'ri chiziq bilan tekislik kesishadi?
4. Qachon to'g'ri chiziq tekislikka parallel bo'ladi?
5. Qachon to'g'ri chiziq bilan tekislik ustma-ust tushadi?
6. Qachon to'g'ri chiziq tekislikka parallel bo'ladi?
7. Qachon to'g'ri chiziq izlari bilan berilgan tekislikka parallel bo'ladi?
8. Qachon to'g'ri chiziq izlarsiz berilgan tekislikka parallel bo'ladi?
9. Qachon izlari bilan berilgan tekisliklar parallel bo'ladi?
10. Qachon izlarsiz berilgan tekisliklar parallel bo'ladi?


1 - misol. AB to'g'ri chiziq bilan berilgan tekisliklarning kesishuv nuqtasi topilsin.

11.1-chizma



11.1-chizma


2 - misol. A nuqta orqali berilgan tekislikka perpendikulyar chiziq o'tkazilsin va unga 30 mm uzunlikdagi kesma o'lchab qo'yilsin. 11.2-chizma




11.2-chizma

12- DARS MAVZU: TO'G'RI CHIZIQ BILAN TEKISLIKNING VA IKKI TEKISLIKNING PARALLELLIGI

O'ZARO PARALLEL TEKISLIKLAR



12.1-chizma




12.2-chizma


12.1-chizmada E_1 nuqta orqali berilgan $P (a \cap b)$ tekislikka parallel bo'lgan $Q (a_1 \cap b_1)$ tekislik o'tkazilishi ko'rsatilgan. Bunda $a'_1 // a'$, $b'_1 // b'$ va $a''_1 // a''$, $b''_1 // b''$, bo'ladi. 12.2-chizmada berilgan $A (A', A'')$ nuqtadan $Q (Q_h, Q_v)$ tekislikka parallel bo'lgan $P (P_h, P_v)$ tekisligini o'tkazish ko'rsatilgan. Parallel tekisliklarning bir nomli izlari uam parallel bo'lishini bilgan holda A nuqtadan izlangan P tekislikning h gorizontali o'tkazilgan, bunda h' gorizental proyeksiyasi P_h iziga parallel bo'lishi shart. h gorizontalinig h''_v frontal izi aniqlanib, h''_v frontal preksiyaasidan R_v ga o'tkazilgan, xamda $P_v // Q_v$ va uning P_x nuqtasidan P_h izi Q_h ga parallel qilib o'tkazilgan..

TO'G'RI CHIZIQ BILAN TEKISLIKNING PERPENDIKULYARLIGI

Ma'lumki, agar L to'g'ri chiziq P tekislikka qarashli kesishgan a va v to'g'ri chiziqlarning har biriga perpendikulyar bo'lsa, bu L to'g'ri chiziq P tekislikka xam perpendikulyardir (12.3-chizma.)




12.3- chizma.




12.4-chizma.

h gorizontal va f frontal chiziqlar orqali berilgan P (h//f) tekislikka perpendikulyar bulgan a to`g`ri chiziq o`tkazilishi ko`rsatilgan (12.4-chizma).

Bunda, Aa perpendikulyarning A''a'' frontal proyeksiyasi f'' frontalning f'' frontal proyeksiyasiga perpendikulyar A'a' gorizontal proektsiyasi h gorizontalning h' gorizontal proyeksiyasiga perpendikulyar bo`lishi ta'minlangan. Tekislikka perpendikulyar to`g`ri chiziqning bu xususiyatidan foydalanib chizmada berilgan A nuqtadan P (Д B C) tekislikka perpendikulyar to`g`ri chiziq o`tkazish ko`rsatilgan. Bunda f frontal B nuqtadan, h gorizontal D nuqtadan o`tkazilgan (12.5-chizma).



12.5-chizma.




12.6-chizma.

P(Ph,Hv) tekislikka A nuqtadan perpendikulyar to`g`ri chiziq o`tkazish ko`rsatilgan. Frontalning frontal proyeksiyasi sifatida Pv to`g`ri chiziq, gorizontalning gorizontal proyeksiyasi sifatida esa Ph olingan (12.6-chizma).


IKKI TEKISLIKNING PERPENDIKULYARLIGI

P va Q tekisliklarning perpendikulyar bo`lishi uchun Q tekislikka qarashli biror m to`g`ri chiziqning P va Q tekisliklar quyidagi ikkita usulda o`tkazish mumkin:

- 1) Izlangan R tekislik Q tekislikka perpendikulyar bo`lgan m to`g`ri chiziq orqali o`tkaziladi.
- 2) Izlangan R tekislik Q tekislikka qarashli m to`g`ri chiziqqa nisbatan perpendikulyar bo`lishi ta'minlanadi.



12.7-chizma.




12.8-chizma.

12.7-chizmada birinchi usul bilan berilgan d to'g'ri chiziqli orqali $R(a, v)$ tekislikka perpendikulyar $Q (d \cap n)$ tekislikni o'tkazish ko'rsatilgan. Bunda $n \perp P$ bo'lib, d to'g'ri chiziqqa qarashli D nuqta orqali o'tkazilgan. 12.8-chizma da $Q (m \cap n)$ tekislik berilgan K nuqtadan o'tgan bo'lib, m gorizont va n frontal ($n'' \perp Bc''$) orqali tasvirlangan. Epyurda $m' \perp B'C'$ va $n'' \perp B''C''$ deb olish yetarlidir.

Amaliy mashg'ulot mavzusiga oid masalalar echish.

1-Masala. Umumiy vaziyatdagi $Q(\Delta ABC)$ tekislik bilan gorizont P tekislikning kesishish chizig'i topilsin. (12.9-chizma). Berilgan:

$Q(\Delta ABC) \wedge P(P_v), P \parallel H$ Topish kerak: $(MN) = P \cap Q$




12.9- chizma.

Masalani echish. $P_v \cap Q(\Delta ABC) = m'n'$ $m \in ab, n \in bc$ bo'lgani uchun MN tekisliklarini kesuvchi chizig'i.

2-Masala. Izlari bilan berilgan umumiy vaziyatdagi P tekislikning gorizont Q tekislik bilan kesishish chizig'i topilsin. (12.10- chizma). Berilgan: $P(P_H, P_v), \wedge Q(Q_v), Q \parallel H$ Topish kerak: $P \cap Q = (MN) \parallel H$ $nm \parallel P_H$

Masala echimi. 1. $Q_v \cap P \rightarrow n'$ $n \in OX$ **Xulosa:** Kesishayotgan tekisliklarning biri gorizont tekislik bo'lgani uchun kesishish chizig'ining tavsifi ham gorizont to'g'ri chiziqli bo'ladi.




12.10-chizma.

13- DARS. MAVZU: SIRTDLAR

IKKI SIRTNING O'ZARO KESISHISH CHIZIG'INI (QURISH) YASASH USULLARI, YORDAMCHI KESUVCHI TEKISLIKDLAR USULI.

Sirtlarning o'zaro kesishishi. Umumiy vaziyatdagi ikki sirtning kesishishi fazoviy chiziqni hosil qiladi. Sirtlarning kesishish chizig'ini aniqlash uchun unda yotuvchi bir nechta nuqtalarni topish kerak bo'ladi. Buning uchun vositachilardan foydalaniladi. Vositachilar ikki xil bo'ladi: 1. Yordamchi proeksiyalovchi tekisliklar. 2. Yordamchi sfera (sharlar). Bu vositachilardan qaysi birini qo'llash berilgan sirtning turlariga va ularning o'zaro vaziyatiga bog'liq. Yordamchi kesuvchi tekislik usuli. Yordamchi tekislik usuli kesishayotgan sirtlar ko'pyoqliklar bo'lsa yoki ulardan biri ko'pyoqlik bo'lsa qo'llaniladi. Bu usulning mohiyati shundaki, kesishayotgan sirtlar yordamchi tekislik bilan kesiladi. Sirtlarning tekislik bilan kesishishidan hosil bo'lgan nuqtalar har ikkalla sirt uchun umumiy bo'lib kesishish chizig'ini tashkil qiladi. Kesishish chizig'ini yasashda avval xarakterli nuqtalar - eng chetki o'ng va chap, hamda eng yuqorigi va eng pastki nuqtalar topib olinadi, so'ng oraliq nuqtalar aniqlanadi. Sirtlarning kesishish chizig'ini yasashda odatda 7 ta yoki 9 ta nuqta aniqlash kifoya. Aniqlangan nuqtalar lekalo yordamida ravon tutashtiriladi

Misol: To'g'ri doiraviy yarim konus bilan to'g'ri prizmaning kesishish chizig'i proeksiyalari aniqlansin (13.1-chizma). Bu misol talabalarning 9-ep'yuri bo'lib, talabalar chizmaning berilishini variant asosida ko'rgazmali stentdan olib chizadilar.



13.1- chizma.

Prizmaning yon yoqlari frontal proeksiyalovchi tekisliklar bo'lgani uchun shu yon yoqlarning konus sirti bilan kesishish chizig'i frontal proeksiyada, xususi vaziyatdagi tekisliklarning yig'ish xossasiga asosan prizma yon yoqlarining ustiga tushadi. Prizmaning ostki yog'i konus sirti bilan to'liq bo'lmagan aylana (5,4 chiziq), chap yog'i to'liq bo'lmagan ellips (5,6,7,1 chiziq), o'ng yog'i to'liq bo'lmagan parabola (1,2,3,4 chiziq) bo'ylab kesishadi. Misolni yechish uchun kesishish chiziqlarining gorizontal proeksiyalarini chizish kifoya.

Kesishish chiziqlariga tegishli nuqtalarning gorizonttal proeksiyasini aniqlash uchun xususiy vaziyatdagi yordamchi gorizonttal Q_1, Q_2, Q_3, Q_4 tekisliklardan foydalanamiz.


Yordamchi tekisliklar har ikki sirtlarni kesib o'tib, konus sirti uchun yarim aylanalar-konus parallellarini, prizma sirti uchun to'g'ri chiziqlarni – prizma yasovchilarini hosil qiladi. O'z navbatida konus parallellari prizma yasovchilari bilan uchrashib, har ikki sirtlarning kesishish chiziqlariga tegishli bo'lgan nuqtalarni beradi. Hosil bo'lgan nuqtalarni tutashtirib, 1,7,6,5 ellips, 1,2,3,4 parabola, 4, 5 aylana bo'laklarni hosil qilamiz.

Mavzuga oid savollar.

1. Chiziqli sirtning oddiy kesimlari qanday chiziq ?
2. Doiraviy silindr, doiraviy konus, Sferalarning oddiy kesimlari qanday chiziqlardan tashkil topadi?
3. Aylanaish sirti qanday hosil bo'ladi?
4. Tekislikka qarashli nuqtaning yetishmagan proektsiyalari qanday xosil qilinadi?
5. Sirtlarning kesishuv chizig'ini xosil qilishda yordamchi kesuvchi tekisliklar qanday tanlanadi?

14- DARS. MAVZU: TEKISLIKLAR BILAN SIRTLAR KESISHUVI

1-Masala. Yarim sfera bilan silindrning kesishish chizig'i proeksiyalari aniqlansin (14.1 - chizma).




14.1– chizma.

Masalaning echimi. Silindr sirtining yasovchilari gorizonttal proeksiyalar tekisligiga proeksiyalovchi vaziyatda bo'lgani uchun, ma'lum yasovchilarining yarim sfera bilan kesishish chizig'ining gorizonttal proeksiyasi silindr asoslari bilan


ustma-ust tushadi (1-2-3-4-5-6-7-8-9- chiziqlar) Yarim sfera bilan silindr sirtlarining kesishish chizig'i frontal proeksiyasini aniqlash uchun yordamchi frontal Q, R, P... tekisliklardan foydalanamiz. Yordamchi frontal tekisliklar silindr sirtini yasovchilari – to'g'ri chiziqlar, yarim sfera sirtini yarim aylanalar bo'ylab kesib o'tadi. Natijada sfera sirtidagi yarim aylanalar, silindr sirtidagi yasovchilar – to'g'ri chiziqlar bilan uchrashib, har ikki sirlarning kesishish chizig'iga tegishli bo'lgan nuqtalarning frontal proeksiyalarini beradi. Hosil bo'lgan nuqtalarni o'zaro ravon tutashtirib, silindr va yarim sfera sirtining o'zaro kesishish chizig'ini frontal proeksiyasini hosil qilamiz. Bu yerda 1', 2', 3', 4' nuqtalarni tutashtiruvchi kesishish chizig'i kuzatuvchiga ko'rinadi, 4', 5', 6', 7', 8', 9' nuqtalarni tutashtiruvchi kesishish chizig'i ko'rinmaydi, chunki ko'rinmas kesishish chizig'i silindr sirtining o'ng qiyofa yasovchisining (4-nuqtaning) orqasida bo'ladi.

1-misol. Konusning ko'rinar sirtiga tegishli figuraning frontal proeksiyasi bo'yicha uning gorizontaal proeksiyasi aniqlansin.

2 -misol. Teshikli sferaning gorizontaal proeksiyasi aniqlansin. 14.2-chizma



14.2a-chizma



14.2b-chizma


15- DARS. MAVZU: QIRQIM VA KESIM

Qirqim – deb buyumni fikran bir yoki bir necha tekislik bilan qirqib ko'rsatilishiga aytiladi. Qirqimda buyumning bevosita qirqilgan qismi va uning ortidagi ko'rinar joylari ko'rsatiladi. Qirqimlar kesuvchi tekisliklarning proeksiyalar tekisliklariga nisbatan holatiga qarab *gorizontaal*, *frontal* va *profil* qirqimlarga bo'linadi. Kesuvchi tekisliklarning soniga qarab *oddiy* (bitta tekislik bilan kesish) va *murakkab* (bir necha tekislik bilan kesish) qirqimlarga ajraladi. ***Qirqimlarning turlari.*** Kesuvchi tekisliklarning soniga qarab qirqimlar quyidagi turlarga bo'linadi: *oddiy* – bitta kesuvchi tekislik bo'lganda, *murakkab* – kesuvchi tekisliklar soni bir necha bo'lganda.


Kesuvchi tekisliklarning gorizontaal proeksiyalar tekisligiga nisbatan vaziyatiga qarab oddiy qirqimlarni quyidagi turlari mavjud: *gorizontaal* – kesuvchi tekislik gorizontaal proeksiyalar tekisligiga parallel; *vertikal* - kesuvchi tekislik gorizontaal

proeksiyalar tekisligiga perpendikulyar; *qiya* - kesuvchi tekislik gorizontal proeksiyalar tekisligiga qiya yoki kesuvchi tekislik birorta ham proeksiyalar tekisligiga parallel emas; (15.1-shakl, 15.2-shakl)


Agar vertikal kesuvchi tekislik frontal proeksiyalar tekisligiga parallel bo'lsa, bu qirqimni *frontal qirqim* va profil proeksiyalar tekisligiga parallel bo'lsa, *profil qirqim* deyiladi.



15.1-shakl



15.2-shakl



15.3-shakl


Murakkab qirqimlardagi bir necha kesuvchi tekisliklar o'zaro parallel bo'lsa, *pog'onali qirqim* (12.7-shakl), o'zaro kesishuvchi bo'lsa, *siniq qirqim* (12.8-shakl) deyiladi.

Mahalliy qirqimlar buyumning ayrim qismlarining ichki tuzilishini ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Mahalliy qirqimning chegarasi ingichka to'lqin chiziq bilan chegaralanib ko'rsatiladi.


Qirqimlarning belgilanishi

Kesuvchi tekislikni holati uzun chiziq bilan ko'rsatiladi. Chizmada uzun chiziqlarning boshi va oxiridagi shtrixlari detal konturi bilan kesishmasligi kerak. Shtrixlarning har ikkisinin ustiga ko'rish yo'nalishini belgilovchi strelkalar qo'yiladi. (15.3-shakl). Strelkalar shtrixlarni ikki tashqi tomonidan 2...3 mm masofada ichkariga qo'yiladi. Murakkab qirqimlarda uzun chiziqlar kesuvchi tekisliklar singan joyga ham quyilishi shart. Ko'rish yo'nalishini belgilovchi strelkalarning ikki chetiga rus alfavitining bosh harflari bilan belgi qo'yiladi.

Qirqimning o'zini esa *A – A* (har doim tire bilan ajratilgan ikkita harf) ko'rinishida belgilanadi. Agar kesuvchi tekislik buyumning simmetriya tekisligi bilan ustma-ust tushgan bo'lsa hamda proeksiyalar o'zaro proeksion bog'lanishda tavsirlangan bo'lsa, u holda gorizontal, frontal va profil qirqimlarda kesuvchi tekisliklarga belgi qo'yilmaydi va qirqim ustiga yozilmaydi. 12.9 berilgan chizmada qirqim belgilanmagan.



15.3a-shakl



15.3b-shakl

Kesimlar

Kesim deb bir yoki bir necha tekislik bilan buyumni fikran kesilganda hosil bo'lgan kesim yuzasining tasviriga aytiladi. Kesimlarda qirqimlardan farqli ravishda kesuvchi tekislik bilan kesilgan yuzaning o'zi tasvirlanadi.


Kesimlarning *chiqarilgan* (15.4-shakl, a) va *ustiga chizilgan* (shakl, b) turlari mavjud. Ko'proq chiqarilgan kesimlarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ularni asosiy ko'rinishlarni uzib orasiga joylashtirib ko'rsatish ham mumkin (shakl, v).

Chiqarilgan kesimning kontur chizig'i asosiy tutash chiziq bilan, ustiga chizilgan kesimning konturini esa ingichka tutash chiziq bilan beriladi.

Nosimmetrik kesimlarda kesuvchi tekislikni strelka bilan yo'nalishi ko'rsatilgan uzuq chiziq bilan beriladi. Chiqarilgan kesimni esa mos ravishdagi rus alfavitining katta harflari bilan belgilanadi (shakl, a).

Ustiga yoki oraliqqa chizilgan kesimlarda kesuvchi tekislik strelka va uzuq chiziq bilan ko'rsatiladi, lekin harf belgisi qo'yilmaydi (shakl, b,v).


Simmetrik bo'lgan chiqarilgan yoki ustiga chizilgan kesimlarda simmetriya o'qi ingichka shrtixpunktir chiziqlar bilan chiziladi, biroq uzuq chiziqli, harfli va strelkali belgilar qo'yilmaydi.



15.4-shakl


Kesim yuzalarining qurilishi va holati strelka ko'rsatgan yo'nalishga mos kelishi shart. Kesimni chizmaning ixtiyoriy joyida joylashtirish mumkin. Kesuvchi tekisliklarning holati buyumning normal ko'ndalang kesimiga mos kelishi kerak. Kesim yuzaning shakli kesuvchi tekislikni proeksiya tekisliklaridan birortasiga nisbatan parallel holatga kelguncha aylantirib olinadi.

Bitta detalga tegishli bir nechta bir xil kesimlarni bir xil harf bilan belgilanishiga yo'l qo'yiladi. Masalan, 15.5-shakldagi A-A kesim.




15.5-shakl

Qirqim va ko'rinishlardagi qirqim berilmagan hollarda teshiklarga o'lcham qo'yishlar 15.6-shaklda ko'rsatilgan.




Qirqimda	Ko'rinishda (qirqim berilmaganda)




15.6-shakl


16- DARS. MAVZU: AKSONOMETRIK KO'RINISHLAR




Izometriya- qadimgi grek so'zi "**isos**"dan olingan bo'lib, u teng yoki bir xil degan ma'noni anglatadi. Izometrik tekislik proyeksiya tekisliklariga (X,Y,Z o'qlariga) nisbatan bir xil qiyalanganligidan izometrik o'qlar orasidagi burchak teng, ular o'zaro 120° burchak ostida joylashadi.



Dimetriya- eski grek yozuvidan olingan bo'lib **Di**-ikki, **metrio**-o'lchayman, o'qlar bo'yicha ikkita o'lchayman degan ma'noni bildiradi.





Nazorat uchun savollar

1. Konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi (KXYaT) nima?
2. Qanday chizma formatlari mavjud?
3. Masshtab deb nimaga aytiladi? Chizmada u qanday ifodalanadi?
4. Qanday chiziqli turlarini bilasiz?

17- DARS. MAVZU: AJRALADIGAN BIRIKMALAR. REZBALAR TURLARI VA ULARNI CHIZMADA TASVIRLASH, BELGILASH.

Rezbalar va ularning asosiy turlari

Rezba deb tekis konturning silindrik yoki konus sirti yuzasida aylanma va ilgariylanma harakati natijasida hosil bo'lgan vint sirtiga aytiladi.

Rezbaning tashqi diametri uning asosiy o'lchami hisoblanadi. Sanoatda ishlatiladigan ko'pchilik rezbalar standart rezbalar bo'lib, ularni davlat standartlari belgilab beradi. Zarur hollarda ularning *maxsus rezbalar* deb ataladigan turi ham ishlatiladi. Maxsus rezbalar o'zining profili va o'lchamlari bilan standart rezbalaridan farq qiladi.

Rezbalar ishlatilishi, vazifasi va parametrlari bo'yicha **metrik, dyuymli, silindrik, truba, konussimon truba, trapesiyali va tirak** kabi turlarga bo'linadi

Metrik rezbalar (17.1-jadval, a) ko'pincha biriktirish detallarida (vintlar, boltlar, shpilkalar, gaykalar) qo'llaniladi. Bunday rezbalarining profillari teng tomonli uchburchak bo'lib, yoqlari orasidagi burchak 60° ni tashkil etadi.

Detallarning vazifasiga qarab metrik rezbalar mayda va katta qadamli qilib o'yilishi mumkin. Metrik rezbalar M xarfi va nominal diametri bilan belgilanadi (masalan: M16, M20), agar mayda qadamli bo'lsa M16 dan so'ng X belgi orqali qadamining o'lchami qo'shib, (masalan (M16×2), chap rezba bo'lsa λN qo'shib (masalan, M16 λ N) yoziladi.

Dyuymli rezbalar (17.1-jadval, b) ehtiyot qismlarda ishlatish uchun qo'llaniladi. Uning profili tengyonli uchburchak bo'lib, yoqlari orasidagi burchak 55° ga teng bo'ladi. Ushbu rezba dyuym ($1''=25,4$ mm) bilan o'lchanadi. Dyuymli rezbani belgilanishi $1^{1/2}''$, $1^{1/4}''$ va x.k.

Silindrik truba rezbalar suv va gaz trubalarini biriktirishda ishlatiladi. Uning profili avvalgidek 55° teng yonli uchburchak bo'lib, uchlari yumaloqlangan bo'ladi (17.1-jadval, v). Chizmada bunday rezbalar dyuymga «G» belgisi qo'shib belgilanadi (masalan: G1").

Lekin bu belgilanish shartli belgilanish hisoblanadi. Chunki bu o'lcham rezba o'lchami bo'lmay, balki trubadagi teshikning diametrini bildiradi.

Trubaning tashqi diametri chizmada berilgan o'lchamdan katta bo'ladi. Masalan, chizmadagi G1" o'lchamli trubaning tashqi diametri $d=33,5$ mm ni tashkil etib, ichki diametri 1" (25,4 mm) ga teng bo'ladi.

Amalda silindrik truba rezbalar mayda qadamli dyuymli rezba bo'ladi. Balandligi kichik bo'lgani uchun bunday rezbalar yupqa devorli trubalarga ham o'yilishi mumkin.

Konussimon truba rezbalar katta bosimli gaz yoki suyuqlik o'tadigan trubalarda ishlatiladi (17.1-jadval, g).

Konussimon rezbalar ham tengyonli uchburchak bo'lib, uchlari orasidagi burchak 55° ni hosil qiladi. Konuslik 1:16 ga teng va bu konus yasovchisiga nisbatan $\varphi=1^\circ 47' 24''$ ni tashkil etadi. Konussimon truba rezbalar quyidagicha belgilanadi: $K_{\text{trub}} 1/2''$.

Dyuymli truba rezbalar (17.1-jadval,d) parametrlarining konussimon truba rezbadan farqi profilidagi burchakning 60° ekanligidadir. Shuning uchun ham bularning parametrlarida (masalan, 1 dyuymdagi o'ramlar soni yoki qadami) farq bo'lishi tabiiy.

Trapesiyali rezbalarning profili teng yonli (17.1-jadval,e) trapesiyadan iborat bo'lib, tomonlar orasidagi burchak 30° ni tashkil etadi. Bu rezbalar aylanish natijasida ilgarilanma harakat hosil qilish uchun ishlatiladi.


Tirak rezbalar (17.1-jadval,j) rezba o'qi yo'nalishi bo'yicha bir tamonlama katta kuch ta'sir etuvchi mexanizmlarda qo'llaniladi. Rezba profili tropesiyaga o'xshash lekin ishchi tomoni o'qqa paralell bo'lgan chiziqli nisbatan 3° ni ikkinchi tomoni 30° ni tashkil etadi.

To'g'ri burchakli nostandart rezbalar (17.1-jadval,z) ilgarilanma yoki aylanma harakat bilan ishlovchi kuchli presslash va yuk ko'tarishlar moslamalarida ishlatiladi. Mazkur rezbalarning profillari to'g'ri burchakli bo'lib, asosan nostandart rezbalar ko'rinishida bajariladi. Rezbalarni chizmada shartli tasvirlanishi

Vint sirtlarini chizmada tasvirlash murakkab bo'lganligi sababli, ularni chizmalarda tasvirlash shartli bo'lishini taqozo etadi.

2.311-68 DS rezbalarni chizmada shartli tasvirlash qoidalarini belgilab beradi.

Sterjendagi tashqi rezbaning tashqi diametri d yo'g'on tutash chiziqli bilan, ichki diametri d_1 ingichka tutash chiziqli bilan chiziladi (17.1,a-shakl).



17.1-shakl

17.2-jadval Olti yoqli kallakcha ega bo'lgan boltlarning 7798-70 DS bo'yicha o'lchamlari


Metrik rezbaning nominal diametri, d		10	13	16	20	24	30
Rezba qadami, r	katta	1,5	1,75	2	2,5	3,0	3,5
	kichik	1,25		1,5		2	
Kalit tushayotgan joy o'lchami		17	19	24	30	36	46
Kallak balandligi, N		7	8	10	13	15	19
Bolt kallagining diametri, D		18,7	20,9	26,5	33,3	39,6	50,9

Vintlar biriktiriladigan detallardan biriga burab kiritiladi. Uning kallagi boltnikidan boshqacharoq shaklda bo'ladi. Ko'pincha, vintlar otvyorka bilan burab kirgizish uchun vint kallagida maxsus ariqcha o'yiladi.

Ikki xil bajarishda tayyorlangan vintlarning chizmalari 17.2-shaklda keltirilgan.


Shpilka. Ikki tomoniga rezba ochilgan (17.2,a-shakl) sterjenga shpilka deyiladi.

l_1 rezbali tomoni mahkamlanadigan detalga buraladi (17.2,b-shakl). U tomonining uzunligi po'lat bronza va latundan yasalgan shpilkalar uchun $l_1=d$ olinadi, agar shpilka cho'yandan bo'lsa $l_1=1,6d$ bo'ladi. Shpilka uzunligi l deganda, uning mahkamlanadigan l_1 qismidan qolgan qismi tushuniladi. Gayka kirgiziladigan qismi l_0 shpilka diametri d hamda gayka kallagi N balandligiga bog'liq. Odatda, shpilka tomonlariga ochilgan rezbalar bir xil diametrda bo'ladi.



17.2-shakl

Gaykalar. Gaykalar bolt yoki shpilkani rezba ochilgan tomoniga buraladi, shunda oʻrtadagi detal bolt kallagi va gayka orasida siqilib mahkamlanadi.



17.3.-shakl

17.4-shakl

Shaybalar. Shaybalarni ishlashdan asosiy maqsad uning gayka bilan biriktirilayotgan detal orasidagi zichlikni taʼminlashdir. Undan tashqari, shaybalarining quyidagi funksiyalarini ham sanab oʻtish mumkin:

- Agar bolt va shpilka osti teshiklari aylanasimon boʻlmasa yoki ularning ostidagi detal sirti nimjon boʻlganda;
- Biriktirilgan detal sirtini chizilishidan saqlashda;
- Detal yumshoq material (alyuminiy, bronza, latun va boshqa)lardan ishlanganda.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Ajraluvchi va ajralmas birikmalar biri-biridan nima bilan farq qiladi?
2. Standart rezba turlarini aytib bering?
3. Katta va mayda qadamli rezbalarning farqi nimadan iborat?
4. Boltning qanday elementlari mavjud?
5. Gaykalarining qanday turlarini bilasiz?
6. Shaybalar qanday maqsadlarda ishlatiladi?
7. Shpilkalar qanday vaziyatlarda qoʻllaniladi?
8. Shpilkaning detalga mahkamlanadigan rezbali qismining uzunligi nimaga teng?
9. Shpilka uyasining chuqurligi nimaga teng?
10. Ajraluvchi birikmalarga qanday birikmalar kiradi?

18- DARS. MAVZU: ESKIZLAR VA ESKIZLARNI BAJARISH BOSQICHLARI.

1-va 2- murakkablikdagi detal eskizlari. Texnikaviy rasm. etallarning eskizlarini bajarish

Eskiz konstruktorlik hujjati boʻlib, konstruktorlar faoliyatida, ixtirolarda va ishlab-chiqarishni tashkil etishda keng qoʻllaniladi. Buyumni dastlabki ishlab

chiqarishda, ta'mirlashda va boshqa hollarda ularni eskiziga binoan tayyorlanadi. Shuning uchun ham eskiz bajarishni barcha muhandislik yo'nalishidagi talabalarning bilishlari muhim o'rin tutadi.

Eskizlar (konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi) standartlarining barcha talablariga rioya qilgan holda detal elementlarini tahminan proporsionalligini saqlab va ko'z bilan chamalab chizmachilik asboblari qo'lda bajariladi.


Eskiz kataklarga bo'lingan barcha formatdagi chizma qog'ozlariga bajarilishi mumkin. Detallarning ish chizmalarini chizishda ham eskiz asosiy hujjat hisoblanib, unda detal materiali, o'lchamlari va shakli haqidagi ma'lumotlar to'liq keltirilgan bo'lishi lozim. Undan tashqari, detalga (texnik talablarga) oid grafik va yozma ma'lumotlar ham berilishi mumkin. Eskiz tuzish jarayonini bir necha bosqichga bo'lib o'rganish tavsiya etiladi.

1-bosqich. Detal bilan tanishib chiqish

Detalning shakli uning asosiy elementlarini fikran bir necha sirlarga bo'lish yo'li bilan tahlil qilinadi. Imkoniyatga qarab detalning vazifasi, tayyorlash texnologiyasi, materiali va ishlatilishi to'g'risidagi ma'lumotlar olinadi (18-shakl, v).

2-bosqich. Bosh ko'rinish va boshqa kerakli tasvirlarni aniqlash

Bosh ko'rinishni shunday tanlash kerakki, u detalning shakli va o'lchamlari haqida, shu bilan birga uni tayyorlashda eskizdan foydalanishni yengillashtirish zarur. Tasvirlarni yaqqolligini oshirish uchun ko'rinishlarda qirqim va kesimlardan foydalaniladi. Tasvirlarda iloji boricha ko'rinmas kontur chiziqlari kam bo'lgani ma'qul. yetarli ko'rinishlar sonini aniqlashda va eskizni bajarishda DS 2.305-68 qoidalari va tavsiyalariga binoan bajariladi.



18-shakl

18,a,b-shakllarda detalni joylashtirish variantlari strelka bilan ko'rsatilgan, ulardan ko'rib turibdiki, 18,b-shaklni bosh ko'rinish deb olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki uni chap yonidan qaraganimizda avval aytib o'tilgandek boshqa ko'rinishlarga nisbatan to'liqroq ma'lumot berishi hamda ko'proq elementlari joylashganligini ko'ramiz.

Berilgan detalni shaklini tasavvur qilish uning uchta tasviri yetarli bo'ladi: ya'ni, bosh ko'rinish, ustidan ko'rinish, chap yonidan ko'rinish. Bosh ko'rinishda esa frontal qirqim berish zarur.

3-bosqich. Chizma formatini tanlash

Chizma formati 2.301 DS ga binoan tanlanadi va 2-bosqichga asosan detalni barcha elementlari va shaklini yetarli kattalikda tasvirlash, o'lchamlar qo'yish va shartli belgilarni ifodalash uchun imkon beradigan bo'lishi zarur.

4-bosqich. Chizma qog'ozini tayyorlash

Tanlangan formatdagi chizma qog'ozining listlarni jamlab bog'lash uchun chap tomonidan 20 mm va qolgan uch tomonida 5 mm list qirg'og'ining ichkarisiga ramka chiziladi, so'ngra asosiy yozuv uchun chizma qog'ozining o'ng tomoni ostidan joy ajratiladi.

5-bosqich. Chizma qog'oziga tasvirlarni joylashtirish

Detalning tasvirini ko'z bilan chamalab ularning gabarit o'lchamlariga qarab joylashtirish rejalashtiriladi. Ushbu holatda detal balandligi A deb olinib, unda detal eni $B \approx A$ va uzunligi $S \approx 2A$ ga taxminan teng desa bo'ladi (18,b-shakl). Ko'rinishlar uchun ingichka chiziqlar yordamida to'g'ri to'rtburchaklar chiziladi (18,a-shakl). Bu to'g'ri to'rtburchaklar asosiy yozuv, texnik talablar, shartli belgilar va o'lchamlar qo'yish uchun joyni e'tiborga olgan holda format ramkasi ichiga joylashtiriladi.

6-bosqich. Detal elementlarini tasvirlash


Chizilgan to'g'ri to'rtburchaklar ichiga uning o'lchamlarini proporsiyasi va proeksion bog'lanishni saqlagan holda detal elementlarining markaz hamda o'q chiziqlari o'tkaziladi (18,b-shakl).

7-bosqich. Ko'rinishlar, qirqim va kesimlarni bajarish

Barcha ko'rinishlarda 6-bosqichda e'tibor berilmagan qismlar to'ldirib chiziladi (masalan, yumaloqlashlar va x.k. lar). Ko'rinishlar chizib bo'lingandan so'ng yordamchi chiziqlarni o'chirib tashlanadi. 2.305-68 DS ga muvofiq qirqim va kesimlar bajariladi va kesim yuzalari material turiga qarab shtrixlanadi, chiziqlari qoraytiriladi.

8-bosqich. O'lcham chiziqlari va shartli belgilarni qo'yish

Sirtlarni xarakterini aniqlovchi o'lcham va chiqarish chiziqlari, shartli belgilar (diametr, radius, kvadrat, konuslik, qiyalik, rezba turlari va boshqalar) 2.307-68 DS qoidalariga asosan bajariladi (18,v-shakl).



18-shakl

9-bosqich. O'lcham sonlarini qo'yish

Detal elementlarini o'lchov asboblari yordamida o'lchab o'lcham chiziqlari ustiga o'lcham sonlari qo'yiladi. Agar detal elementlarida rezba ochilgan bo'lsa, uni parametrlari va rezbani belgilanishi qo'yiladi (18,g-shakl).

10-bosqich. Eskizni taxt qilish

Detalning eskizi chizilgandan so'ng asosiy yozuv to'ldiriladi. Kerak bo'lgan hollarda o'lchamlardagi chetga chiqishlar, sirtlarning shakli, joylashishi, texnik

talablar hamda tushuntirish yozuvlari haqida ma'lumotlar beriladi. So'ngra eskiz oxirgi marta ko'zdan kechirilib tekshiriladi va kamchiliklari tuzatiladi.

Nazorat savollar:

1. Eskiz deb nimaga aytiladi?
2. Bosh ko'rinish va boshqa kerakli tasvirlarni qanday aniqlanadi?
3. Eskizni bajarish bosqichlarini sanab o'ting.
4. Ko'rinish deb nimaga aytiladi? Bosh ko'rinish qanday tanlanadi?
5. Qirqim deb nimaga aytiladi? Qirqimning qanday turlarini bilasiz?
6. Kesim bilan qirqim o'rtasida qanday farq bor?
7. Kesimning qanday ko'rinishlari mavjud?
8. Ko'rinishlarda qanday sodalashtirishlar ishlatiladi?

MUSTAQIL ISH

1-Mustaqil ish (Epyur)

Ishning maqsadi:

Talabalarda metric va nozitsion masalalarni echish bilim va kunikmalarni hosil qilishdan iborat.

Ishning tarkibiy qismi:

ABC uchburchak tekisligi va D nuqta koordinatalari orqali berilgan. Ortogonal (to'g'ri burchakli) proyeksiyalash orqali qo'yidagi masalalar yechilsin:

1-masala. ABC uchburchak tekisligidan D nuqtacha bo'lgan masofaning haqiqiy kattaligi yasalsin.

2-masala. ABC uchburchak tekisligidan 35mm uzoqlikdan utib shu tekislikka parallel bo'lgan tekislik o'tkazilsin.

3-masala. Uchburchak tekisligining Bichidan o'tib AC tomonga perpendilulyar bo'lgan tekislik o'tkazilsin. Ushbu tekislik bilan uchburchak ABC tekisligining o'zaro kesishish chizig'i yasalsin. Tekisliklarning ko'rinadigan va ko'rinmaydigan qismlari aniqlansin.


1-masala.

1-masalani echish uchun A3 formatining chapki yuqori qismiga koordinata uqlari belgilab olinib ilovadagi 1-jadvaldan o'z variantiga ko'ra A,B,C,D nuqtalarining koordinatalari olinadi (ilovaga qaralsin).

Misol uchun: A(80;40;0), B(30;0;45), C(0;70;20), D(70;65;55).


Masalni echish algoritmi:

A,B,C,D nuqtalarni koordinatalari bo'yicha ABC uchburchak tekisligi va D nuqtaning proyeksiyalarini quramiz. (1-rasm).



1-rasm.


Umumiy vaziyatdagi uchburchak tekisligi ABCning gorizantal bosh chizig'i qo'yidagi nuqta orqali $C(C'1',C''1'')$ va frontal bosh chiziq qo'yidagi nuqta orqali $A(A'2',A''2'')$ (2-rasm).



2-rasm

D nuqtadan ΔABC tekisligiga perpendikulyar tushuramiz: ya'ni D-perpendikulyar $A2(A''2'')$ FFPga (frontalning frontal proyeksiyasiga) va D-perpendikulyar $CI(C'1')$ –GGPga (gorizantalning gorizantal proyeksiyasiga).


Gorizantal bosh chiziqqa o'tkazilgan perpendikulyar orqali gorizantal proyeksiyalovchi tekislikni izlari orqali S tekisligini o'tkazamiz. S tekislik bilan ΔABC tekisligining kesishish chizig'i $MN(M'N',M''N'')$ ni proyeksiyalarini quramiz (3-rasm).



3-rasm

Frontal proyeksiya tekisligida D nuqtadan $\triangle ABC$ tekislikka o'tkazilgan perpendikulyar yordamida MN kesishish chizig'ida $K(K'')$ nuqtani belgilab shu nuqtaning $K(K')$ gorizantal proyeksiyasini bog'lovchi chiziq orqali yasaymiz. K nuqta D nuqtadan ABC uchburchak tekisligiga o'tkazilgan perpendikulyarning asosi hisoblanadi (yoki D nuqtadan ABC uchburchak tekisligigacha bo'lgan eng yaqin nuqtadir). Topilgan DK kesma ABC uchburchak tekisligidan D nuqttagacha bo'lgan masofa bo'lib u umumiy vaziyatdagi to'g'ri chiziq kesmasining orthogonal proyeksiyalari orqali qurilgan ($D'K'$; $D''K''$). Bu kesmaning haqiqiy kattaligi to'g'ri burchakli uchburchaklar usulidan foydalanib topiladi (3-rasm, b).

To'g'ri burchakli uchburchak usuliga ko'ra DK kesmasining haqiqiy kattaligi yasalgan to'g'ri burchakli uchburchakning gepotenuzasidir, ushbu uchburchakning bitta kateti DK kesmasining frontal proyeksiyasi bo'lib, ikkinchi kateti DK kesmasi gorizantal proyeksiyasi uchlarining frontal proyeksiya tekisligidan uzoqliklari ayirmasidir (Δy) (4-rasm).




4-rasm

2-masala.


Masalni echish algoritmi:.

Berilgan koordinatalar bo'yicha ABC uchburchak tekisligini proyeksiyalarini quramiz. ABC uchburchak tekisligining gorizantal bosh chizig'i $C(C'1', C''1'')$ nuqta orqali, Π frontal bosh chizig'ini $A(A'2', A''2'')$ nuqta orqali quramiz. Uchburchakni A uchidan tekislikka perpendikulyar o'tkazamiz, ya'ni $A''2''$ (f.f.p.) va $C'1'$ (g.g.p) larga perpendikulyarlar. (5-rasm).




5-rasm

Ushbu perpendikulyarda ixtiyoriy $E(E'E'')$ nuqtani tanlaymiz. EA kesmaning haqiqiy kattaligini to'g'ri burchakli uchburchak usulidan foydalanib aniqlaymiz $EA = E_0A''$ (6-rasm).




6-rasm

E_0A'' kesmaning haqiqiy kattaligi A'' nuqtasidan 35 mm masofani qo'yib ($A''E_0 = 35$ mm) M nuqtani belgilaymiz va ($M'M''$) quramiz (7-rasm).



7-rasm

M nuqta orqali tekisliklarni parallel shartidan kelib chiqib ABC uchburchak tekisligiga nisbatan parallel tekislik o'tkazamiz. Uchunchi masalani to'liq grafik yechimi 8-rasmda keltirilgan.




8-rasm


3-masala..

Masalni echish algoritmi:.

Chizmada 3-masala bajarish M2:1 miqyosda olinadi. A,B,C nuqtalarni variantda berilgan koordinatalariga ko'ra ABC uchburchak tekisligini quramiz. Uchburchak tekisligining AC tomoniga perpendikulyar bo'lgan tekislikni qurish uchun uchburchak tekisligining B uchidan gorizontaal va frontal bosh chiziqlarni o'tkazishdan foydalanamiz. Buning uchun B nuqtadan gorizontaal bosh chizig'ini o'tkazamiz (9-rasm) va frontal bosh chiziq (10-rasm) hamda ularni $F(F', F'')$ va $E(E', E'')$ nuqtalar bilan chegaralaymiz, bunda $B'E' \parallel O_x$, $B'E' \perp A'C'$ va $B'F' \parallel O_x$, $B'F' \perp A'C''$ to'g'rib o'ladi.



9-rasm




10-rasm

Qurilgan $BEF(B'E'F', B''E''F'')$ uchburchak tekisligi masalada talab qilingan tekislikdir.


Masalaning keying bosqichi ikkita uchburchak tekisligi ABC va BEF larni o'zaro kesishishchizig'ini qurishdan iborat. Buning uchun BEF uchburchak

S tekislik bilan ABC uchburchak tekisligining o'zaro kesishish chizig'i $MN(M'N', M''N'')$ ni quramiz. BEF uchburchak tekisligining EF tomoni berilgan ABC uchburchak tekisligi va S tekislikni kesishish chizig'i MN bilan $K(K'K'')$ nuqtad kesishadi. K va B nuqtalarni o'zaro tutashtirish orqali, ABC va BEF uchburchak tekisliklarining o'zaro kesishish chizig'ini topamiz (12-rasm).




58

1,2,3 va 4 konkurent nuqtalar yordamida BEF va ABC uchburchak tekisliklarining ko`rinadigan qismlarini aniqlaymiz (13-rasm), ko`rinadigan qismlarni shtrixlaymiz va tasvirga sayqal beramiz.



13-rasm

3-masalaning to`liq yechilgan holdagi ko`rinishi 14-rasmda keltirilgan.



14-rasm

1-GI ni himoya qilishda nazorat uchun savollar.

1. Ortogonal proyeksiyalash haqida tushunchangizni keltiring (Monj usuli)?
2. Fazoda to'g'ri chiziq qanday hususiy vaziyatlarda bo'lishi mumkin?
3. Qanday hollarda to'g'ri chiziq kesmasining uzunligi o'ziga teng bo'ladi?
4. Fazoda ikkita to'g'ri chiziq bir-biriga nisbatan qanday vaziyatlarda joylashishi mumkin?
5. Kesma haqiqiy kattalik yasashning to'g'ri burchakli uchburchak usuli tartibini tushuntirib bering?
6. Tekisliklar epyurda necha xil usulda beriladi?
7. Tekisliklar izini tushuntirib bering?
8. Qachon to'g'ri chiziq tekislikka ta'luqli bo'ladi?
9. Tekisliklarni bosh chiziqlari va eng katta og'ish chiziqlarini tushuntirib bering?
10. Ikkita tekislikni kesishish chizig'ini yasash algoritmi nimaga asoslangan?
11. Ikki tekislikni o'zaro kesishish chizig'ini yasashda odatda qanaqa tekisliklardan foydalaniladi va nima uchun?
12. To'g'ri chiziq bilan tekislikni kesishish chizig'ini yasash algoritmi nimaga asoslangan?
13. Chizmalarda to'g'ri chiziq tekislik bilan kesishganda ko'rinadigan qismlari qanday aniqlanadi?
14. Tekislik tegishli bo'lgan qaysi bir nuqtadan perpendikulyar o'tkazish maqsadga muvofiq?
15. Ikkita tekislikning perpendikulyarlik belgisini tushuntirib bering?
16. To'g'ri chiziq va tekislikning perpendikulyarlik belgisi nimadan iborat?

2-Mustaqil grafik ish (Epyur)

Nuqta. To'g'ri chiziq. Tekislik.

Ishning maqsadi: Epyurni qayta qurishga doir talablar bilim va kunikmalarini mustahkamlash.

Ishning tarkibi:

SABC piramida uchlari koordinatalari orqali berilgan. To'g'ri burchakli proeksiyalash orqali qo'yidagi masalalar yechilsin.

1-masala. Tekislikning bosh chiziqlari atrofida aylantirish usulidan foydalanib piramida asosi ABC ning haqiqiy kattaligi topilsin.

2-masala. Tekis-parallel kuchirish usulidan foydalanib piramida uchi S dan uning ABC asosigacha bo'lgan masofa aniqlansin.

3-masala. Proeksiya tekisliklarini almashtirish usuli yordamida piramidaning AB qirrasi hosil qilgan ikki yoqli burchakli haqiqiy kattaligi yasalsin, ikki yoqli burchak piramida qirrasi va asosi orasida hosil bo'ladi.

Ishni bajarish tartibi

1-masala.


Ushbu masalani echish uchun A3 formatining chap qismida koordinata o'qlari belgilab olinib va o'z variantiga ta'luqli bo'lgan koordinatalar 2-jadvaldan tanlab olinadi (ilovaga qaralsin).

ABC tekisligining biror-bir bosh chizig'ini tanlab (masalan: B1gorizantal bosh chizig'i) va bu chiziq aylantirish o'qi etib qabul qilinadi, tekislik tanlangan o'q atrofida shunday aylantiriladiki, to gorizantal (H) tekislikka parallel holatga kelguncha. Ushbu vaziatda tekislikning gorizantal proeksiyasi uning haqiqiy kattaligig tenglashadi. Aylantirish jarayonida tekislikning A,B,C nuqtalarning har biri aylantirish o'qiga perpendikulyar bo'lgan gorizantal proeksiyalovchi bo'lgan tekisliklarda bir vaziatdan ikkinchi vaziatga ko'chadi. Aylantirish radiusining haqiqiy kattaligi to'g'ri burchakli uchburchaklar usulidan foydalanib topiladi. Haqiqiy kattalik sifatida hosil qilingan ABC figuraning tomonlari qizil rangdagi pasta bilan chizib qo'yiladi. Barcha qolgan yordamchi yasovchi chiziqlar chizmada qoldirilib, ingichka chiziqlar yordamida ko'rsatiladi.

Misol: $A(45,5,50)$; $B(5,50,10)$; $C(70,20,0)$.

Masalani echish algoritmi:

ABC nuqtalarni bir xil ismli proeksiyalarini o'zaro tutashtirish yordamida piramida aosis proeksiyalarini qurib olamiz ($A'B'C'$, $A''B''C''$). Asos tekisligining B uchi orqali tekislik gorizantalini qurib olamiz ($B'1'$, $B''1''$) (15-rasm).



15-rasm

1-masala aylantirish usuli yordamida yechilishini inobatga olib dastlab aylantirish markazi va aylantirish radiusini qurish talab qilinadi. Aylantirish markazi $O(O', O'')$, toppish uchun asos ABC uchburchakning A uchida $B1$ ($B'1'$ -gorizantalning gorizantal proeksiyasi)ga perpendikulyar tushuramiz va $O(O', O'')$ nuqtaning proeksiyalarini topamiz. A0 aylantirish radiusi haqiqiy kattaligini ($O'A_0$ -radiusining haqiqiy kattaligi) to'g'ri burchakli uchburchak usulidan foydalanib topamiz (16-rasm).

2-masala.

Geometrik figuralarni proeksiyalar tekisliklariga perpendikulyar boʻlgan oʻq atrofida aylantirish qoidalariga rioya qilgan holda ikkita amalni bajaramiz:

1. ***ABC*** tekislikni proeksiya tekisligiga (***V***) proeksiyalovchi (perpendikulyar) vaziyatga keltiramiz. Bunday frontal-proeksiyalovchi tekislik hosil qilish uchun ***B1*** gorizantal chizig'i tekisligining barcha nuqtalar tizimi bilan ko'chirilib (***ABC*** uchburchak tekisligi) frontal proeksiya tekisligiga perpendikulyar vaziyatga keltiriladi.

Uchburchak tekisligi uning aylantirish o'qi perpendikulyar bo'lgan proeksiya tekisligiga (**V**) proeksiyalanganda tekislikni kattaligi o'zgarmaydi, formasi ham o'zgarmasdan faqat tekislikning proeksiya o'qlariga nisbatan vaziyati o'zgaradi.


Uchburchak nuqtalari frontal tekislikka to'g'ri chiziq bo'lib proeksiyalanadi.

2. S nuqtadan berilgan tekislikkacha bo'lgan masofani toppish. Ushbu kattalik S nuqtadan yangi hosil qilingan $A_1B_1C_1$ frontal proeksiyalovchi tekislikka tushirilgan perpendikulyar to'g'ri chiziq kesmasi kattaligiga teng.

Masala: $A(45, 5, 50)$; $B(5, 50, 10)$; $C(70, 20, 0)$; $S(85, 65, 45)$.


Masalani echish algoritmi.

A, B, C, S nuqtalarning koordinatalariga ko'ra piramida asosi **ABC** va uchini proeksiyalarini quramiz. Piramida asosi **ABC** ning gorizantal bosh chizig'i **B1**(B'1', B''1'') ni quramiz (18-rasm).



18-rasm

Uchburchak ABC tekisligi gorizantal proeksiyasini $A_1B_1C_1$ vaziyatga shunday ko`chiramizki undagi gorizantal bosh chiziq  $V$  tekislikka nisbatan perpendikulyar vaziyatga kelsin. Natijada uchburchak tekisligining frontal proeksiyasi to`g`ri chiziq kesmasiga aylanadi.(19-rasmga qaralsin).



19-rasm

Gorizantal uchburchak ABC tekisligi bilan birga $S(S_1^1)$ nuqtani hamko'chiramiz. Piramida uchi bilan asosi orasidagi masofani topish uchun S_1^{11} nuqtadan $A_1^{11} B_1^{11} C_1^{11}$ chizig'iga perpendikulyar tushiramiz. Hosil bo'lgan $S_1^{11} K_1^{11}$ biz izlagan kesma bo'lib, ya'ni u kesmaning kattaligi piramida uchidan uning asosigacha bo'lgan masofaning haqiqiy kattaligidir. Topilgan kesmaning gorizantal proektsiyasini ham quramiz.

Agarda (SK) kesmaning frontal proektsiyasi uning haqiqiy kattaligiga teng bo'lsa, unda bu kesma V frontal tekislikka parallel bo'lib, kesmaning gorizantal proektsiyasi ($S_1^1 K_1^1$) Ox o'qiga parallel bo'ladi. K_1^{11} nuqtadan gorizantal tekislikka bog'lovchi chiziq o'tkazib, S_1^1 nuqtadan Ox o'qiga parallel chiziq o'tkazib bu chiziqlarni kesishgan nuqtasi K_1^1 nuqtani aniqlaymiz 2-masalaning to'liq yechimi 19-rasmda keltirilgan.

3-masala.

Ikki yoqli burchak hosil qilgan piramida qirrasining asosi bilan hosil qilgan burchagi chiziqli burchak orqali o'lchanadi. Keltirilgan chiziqli burchakli proektsiya tekisligiga haqiqiy kattaligi bilan proektsiyalash talab qilinsa, yangi o'tkaxiladigan tekislikni ikki yoqli burchak hosil qilgan qirraga perpendikulyar vaziyatda joylashtirish zarur bo'ladi.

Proektsiya tekisliklarini almashtirish orqali chizmalar (epyuralar) qayta qurilganda geometric figuralar fazodagi o'z vaziyatini o'zgartirmaydi, faqat H va V tekisliklar bilan almashtiriladi. Geometrik figuralarni yangi almashtirilgan tekislikdagi proektsiyasini qurishda qo'yidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Bir ko'rinishdan ikkinchi ko'rinishga o'tiladi.


2. Ikkinchi ko`rinishdagi nuqtalar proeksiyalari bittadan bog`lovchi chiziqlarda joylashadi.

Yangi tekislikdagi nuqtalar koordinatalari almashtirilgan proeksiya tekisligidagi nuqtalar koordinatalarigi teng bo`ladi.

Masalan: $A(45,5,50)$; $B(5,50,10)$; $C(70,20,0)$; $S(85,65,45)$.

Masalani echish algoritmi:

A, B, C, S nuqtalar koordinatalari bo`yicha piramida uchlarining proeksiyalarini quramiz ($A^1B^1C^1S^1$; $A^{11}B^{11}C^{11}S^{11}$). Masalani echish uchun proeksiya tekisliklarini ikki marta amalga oshiramiz (20-rasmga qaralsin).



20-rasm

Proeksiya tekisligini birinchi bor almashtirishda yangi O_1X_1 proeksiya o`qini  $AB$  qirraga parallel joylashtirish orqali  $AB$  kesmasining haqiqiy kattaligini  $H_1$  tekislikda  $A_1^1B_1^1$  kabi hosil qilamiz va boshqa nuqtalarni ham yangi tekislikdagi  $C_1^1S_1^1$  proeksiyalari hosil bo`ladi. Proeksiya tekisliklarini almashtirish qo`yidagi tizimda amalga oshiriladi.

$$V/H \rightarrow V/H_1$$

Proeksiya tekisliklarini ikkinchi bor almashtirish qo`yidagi tizimda

$$V/H_1 \rightarrow V_1/H_1$$

Olib borilib umumiy tizim $V/H_1 \rightarrow V_1/H_1 \rightarrow V_1/H_1$ tashkil qiladi.

Ikkinchi bor proeksiya tekisligi almashtirilganda yangi proeksiya o`qini  $A_1^1B_1^1 \perp O_2X_2$  qilib olib piramida qirradi  $AB$  kesma uchlari proeksiyasini yangi proeksiya tekisligida bir nuqyaga tushiramiz. Qolgan nuqtalar proeksiyalari  $S_1^{11}$  va  $C_1^{11}$  larni alohida bog`lovchi chiziqlar orqali qurib S_1^{11} va C_1^{11} ($A_1^{11} \equiv B_1^{11}$)

bilan tutashtirib **AB** qirradagi ikki yoqli burchak Φ ning haqiqiy kattaligini aniqlaymiz. 3-masalaning to'liq yechimi 20-rasmda tasvirlangan.

Ikkinchi grafik ishni himoya qilishda beriladigan nazorat savollari.

1. Aylantirish usuli nimaga asoslangan?
2. Aylantirish elementlarini aytib o'ting?
3. Tekis parallel ko'chirish usulini tushintirib beribg?
4. Geometrik figuralarni ular bosh chiziqlari atrofida aylantirish usulini tushintirib bering?
5. Proeksiya tekisliklarini almashtirish nimaga asoslangan?
6. Gorizantal (fronyal) proeksiya tekisliklarini almashtirishda nuqtalarning qaysi koordinatalari o'zgarasdan qoldiriladi?
7. Umumiy vaziyatdagi to'g'ri chiziq kesmasi proeksiyasi almashtirilgan tekislikka haqiqiy kattaligiga teng bo'lib proeksiyalanishi uchun proeksiya tekisligini almashtirish qanday yunalishda amalga oshirilishi zarur?
8. Proeksiya tekisliklarini almashtirishda berilgan tekislik proeksiyalovchi vaziyatga kelishi uchun almashtiriladigan tekislik qanday joylashtirilishi shart?
9. Qanday hollarda tekisliklar orasidagi ikki yoqli burchak haqiqiy kattaligi bo'yicha proeksiyalanadi?

3-Mustaqil grafik ish (Epyur)

Ko'pyoqlar. Ko'pyoqlarni o'zaro kesishishi.

Ishning maqsadi: Kopyoqlar va kopyoqlarni to'liq yoyilmasini yasashga doir pozitsion masalalarni echish orqali talabalarda bilim va kunikmalar hosil qilish.

Ishning tarkibi:

SABC piramida uchlari va **EKGU** asosli to'g'ri prizma uchlari koordinatalari orqali berilgan. Qo'yidagi shartlari bilan berilgan masalalar yechilsin.

1-masala. Piramida bilan to'g'ri prizmaning o'zaro kesishish chizig'i qurilsin.

2-masala. Birinchi masalaning sharti bo'yicha to'g'ri prizma-kopyoqning yoyilmasi qurilsin.

Variantlar 3-jadvalda berilgan.

Ishni bajarish tartibi

A3 formatida 3-jadvaldan foydalanib o'z variant bo'yicha piramida uchlari *A*, *B*, *C* va *D* nuqtalar, prizma uchlari bo'lgan nuqtalar *E*, *K*, *G* va *U* hamda prizmaning

h balandligi va koordinata uqlari chiziladi. Berilgan kattaliklar bo'yicha kupyoqlarning proeksiyalari quriladi (Piramida va prizmaning). Prizma gorizantal proeksiyalovchi vaziyatda bo'lib uning yon qirralari gorizantal proeksiya tekisligiga nuqtalar bo'lib proeksiyalanadi. Prizmaning yon tomonlari ham gorizantal tekislikka proeksiyalovchi bo'lib proeksiyalangan (21-rasm).

Piramida fazoda umumiy vaziyatda joylashgan.


